

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI  
PEDAGOGIKA FAKULTETI

«TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI» KAFEDRASI

“MIS KANDAKORLIGIDA INKRUSTATSIYA USULIDAN  
FOYDALANIB BUYUMNI BADIY BEZASH USULI”  
(KASHTACHILIK MISOLIDA)

mavzusidagi

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajardi:** (Kasb ta'limi) Tasviriyy  
san'at va muhandislik grafikasi ta'lim  
yo'nalishi 4-R guruh talabasi  
Musinov Akmal.

---

**Ilmiy rahbar:**

O'qituvchi Musinova A.

---

**Fakultet dekani:** Psixologiya  
fanlari doktori Professor - Barotov  
SH.R.

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

\_\_\_\_\_ sonli bayonnomasi «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2016 yil

**BUXORO – 2016 y**

# **Mavzu: Mis kandakorligida inkrustatsiya usulidan foydalanib buyumni badiiy bezash usuli**

## **Reja**

### **Kirish**

#### **I bob. Mis kandakorlik san`atini o`qitishning nazariy asoslari**

- 1.1. Mis kandakorlik san`ati tarixi va uning rivojlanish bosqichlari
- 1.2. Mustaqillik yillarida xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`ati
- 1.3. O`zbekiston kandakorlik maktablari va ularning ijodkor namoyondalari
- 1.4. Usto-shogird an`analarining milliy tarbiyadagi ahamiyati va uzviyligi

#### **II bob. Amaliy san`at darslarida o`quvchilarning amaliy bilimlarini rivojlantirish**

2. 1. Mis kandakorlik san`atida ishlatiladigan xom ashyo va asbob-uskunalar
2. 2. Kandakorlik san`atiga oid naqsh va tasvir turlari
2. 3. Mis kandakorlik uslubida bajarilgan buyum turlari
2. 4. Mis kandakorligida inkrustatsiya usulidan foydalanib buyumni badiiy ishlov berish texnologiyasi
- 2.5. The short history of Uzbekistan embossed copper art

### **Xulosa**

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati**

### **Ilovalar**

## Kirish

Tadqiqotning dolzarbligi mamlakatimiz ijtimoiy –siyosiy hayotining barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham ijobiy tub o'zgarishlar bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risidagi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “ ta'lim, jumladan oily pedagogik ta'lim muassasalari xodimlari oldiga pedagogik kadrlarni tayyorlashni tubdan yaxshilash vazifalarini qo'ymoqda.

O'rta maxsus kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablarida o'quvchilarni xunarmandchilik sirlariga o'rgatishda ta'limining zamonaviy uslublaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun kasb –hunar kollejlari amaliy san'at ta'limining yangi mazmunini shakillantirishning ilg'or pedagogik texnologiyalari, zamonaviy o'quv uslubiy majmualar, o'quv tarbiya jarayonining didaktik jihatlarni taminlash va mazkur sohaga o'qitishining ilmiy amaliy masalalarini to'g'ri hal etish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Biz tanlagan bitruv ishimiz mavzusiga asosan yuqoridagi masalani hal qilish yo'llarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirib izlanishlar olib bordik. Respublikamiz nashriyotlarida chop etilgan darslik, o'quv uslubiy qo'llanmalarni o'qib, o'rganib tahlil qilishimiz shuni ko'rsatdiki, hali xalq hunarmandchiligi mis kandakorligi misolida kollej o'quvchilarini amaliy san'atga o'rgatish metodik jihatdan to'liq o'rganib chiqilmagan.

Respublikamiz olimlaridan professor S.S.Bulatov, R.Xasanov, dotsent R.Shobaratov, Q.Qosimov, A.Turdialiev, O.Xudayorova va boshqa amaliy san'at, kasb-hunarga aloqador xalq hunarmandchiligini turli nuqtasini tadqiq qilganlar. Jumladan, professor Bulatov S.S o'zining “O'zbek xalq amaliy bezak san'ati” metodik qo'llanmasida xalq amaliy bezak san'ati turlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishga hamda o'tkazishga bo'lgan shart sharoitlar, o'qitishning nazariy-metodik asoslari hamda dasturlar bayon etilgan, atamalarning izohli lug'ati berilgan.

Shuningdek “Ganchkorlik” qo'llanmasida esa o'zbek xalq dekarativ amaliy

san'atining eng qadimgi girux bilan ganch o'ymakorligiga bag'ishlanadi. Unda ganchkorlik san'ati tarixi rivojlanishi va o'z kasbini yoshlarga o'rgatish usullari bayon etilgan.

Shobaratovning P. "Kompozitsiyasi" O'quv qo'llanmasi amliy san'at o'qitishning o'quv jarayonini tashkil qilish, va mashg'ulotlar kompozitsiyalarini maqsad va vazifalari ko'rsatib o'tilgan. O'quv –qo'llanma boshqa mutaxassislik; fanlari bilan uyg'unlashgan holda o'quvchilar olgan bilimlarini keyingisi bilan to'ldirib borishda yordam beradi.

Professor Xasanov R. "Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasi" nomli darsligida tasviriy va amaly san'atning o'qitish metodlarida kerak bo'ladigan barcha nazariy va metodik bilimlar berilgan.

Xasanov R. "Boshlang'ich sinflarda naqsh chizish metodikasi" nomli o'quv qo'llanmasida naqsh chizishning o'ziga xos xususiyatlari ranglar va ularni ishlatish, ranglarining xususiyatlari, naqsh kompozitsiyalari haqida etarlicha ma'lumotlar beriladi.

Q.Qosimov "Naqqoshlik" nomli asarida naqqoshlik san'atining taraqqiyot yo'li, naqqoshlik tugragining mazmuni uchun o'qitishning nazariy asoslari naqsh solishga o'rgatish metodikasi bayon etilgan.

Ammo mis kandakorligi san'ati uchun alohida bir darslikni uchratganim yo`q.

Kasb-hunar kollejlarda va hunarmandchilik to'garaklarida mis kandakorlik sirlarini yangi pedagogik va muammoli ta'lim metodlaridan foydalangan holda olib borilsa dars samaradorligini oshirishga erishish mumkin. O'quvchilar darslarni ilmiy asosida tushunishlari osonlashadi, dars talablarini boshqarishda ularni malakasi oshadi va fazoviy tasavvurlari kengayadi.

### **Tadqiqot maqsadi:**

Mis kandakorligida inkrustatsiya usulidan foydalanib buyumni badiiy bezash usulini o`rganish. Mis kandakorligi misolida kollej o'quvchilarini amaliy san'atga o'rgatishning pedagogik shart – sharoitlarini aniqlash va o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llash usullarini takomillashtirish.

### **Ilmiy tadqiqot vazifasi:**

- dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakillantirish.
- kasb-hunar kollejlari mis kandakorlik darslari samaradorligini oshirishga bo'lgan asosiy talablarni aniqlash,
- kollej o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishda sharq olimlari pedagogic qarashlaridan foydalanish yo'llarini topish
- kasb-hunar kollejlari zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib mis kandakorlikni o'rgatish usullarini takomillashtirish.
- turli tadbirlar vositasida mis kandakorlikni o'quvchilar qalbiga singdirish.
- turli rasmlar va didaktik materiallardan foydalanishni rivojlantirish.
- hunarmandchilikni ayniqsa, mis kandakorlikni, o'quvchilar ommasida keng targ'ib qilish va ishimizni tajriba qilib sinovdan o'tkazish.

**Bitiruv ishimizning predmeti:**

Kasb-hunar kollejlari va umumiy ta'lim maktablari o'quvchilariga hunarmandchilikni mis kandakorligi misolida o'rgatish jarayoni.

- hunarmandchilikka oid darslarni olib borishda tugarak mashg'ulotlarining imkoniyatlaridan ham samarali foydalanilsa yaxshi natijalarga erishish mumkin.

. Tadqiqot ob'ekti etib; Buxoro san'at va kasb-hunar kollejlari amaliy san'at mashg'ulotlarini o'tkazish jarayoni tanlandi.

**Tadqiqot ishlarining ilmiy yangiligi:** kasb-hunar kollejlari amaliy san'at darslari orqali hunarmandchilik sirlarini o'rgatib, muammoli ta'lim metodlaridan, didaktik vositalardan foydalanish orqali o'quvchilarga kandakorlik sirlarini to'g'ri o'rgatish yo'llari aniqlandi va dars samaradorligi oshirildi. Unutilib ketgan kandakorlik uslublaridan biri qadama (inkrustatsiya) texnikasini qayta tiklashga erishildi.

Ishning metodi: manbalarni o'rganish, tahlil qilish, so'rov o'tkazish, aniqlash, taniqli kandakorlar bilan yaqindan tanishib, ishlarini o'rganish.

Malakaviy bitiruv ishimiz rejalaridagi mavzularni o'rganish bilan kasb-hunar kollejlari va umum ta'lim maktablarida hunarmandchilikka o'rgatish mashg'ulotlarini tashkil qilish orqali yoshlarimizni kasb-hunarga yo'llashga

uchraydigan muammolar, ularni hal qilishda ta'limda samaradorlik va kasbiy masalalarni ahamiyatini hamda hunarmandchilikka oid kasblarni fanlararo aloqadorlik asosida tashkil qilishga harakat qildi.

## **I bob. Mis kandakorlik san`atini o`qitishning nazariy asoslari**

### **1.1. Mis kandakorlik san`ati tarixi va uning rivojlanish bosqichlari**

O'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng keng tarqalgan turlaridan biri kandakorlikdir. O'zbekiston hududida joylashgan Markaziy Osiyo shaharlarida metallardan yasalgan badiiy buyumlar ishlab chiqarish qadimdan rivojlanib kelayotgan san'at bo'lib, bu san'at o'zining qadimiyligi bilan kulolchilikdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Arxeologik topilmalardan eramizdan avvalgi III asr oxiri hamda II asr boshlarida birinchi (maxsus mis qotishmasi) to'g'nag'ichlar Misr, O'rta er dengizi, Mesopotamiya, Hindiston, Markaziy Osiyoda keng tarqalganligi aniqlangan. Bu badiiy metall buyumlari ishlashning ilk namunalari edi. To'g'nag'ichlarda kichik-kichik voqealar, hayvon va boshqa narsalar tasvirlangan. Farg'onada topilgan marosim qozoni 1 ming yillikning o'rtalarida kandakorlik «hayvonot uslubi» rivoj topganligini isbotladi.

III—VIII asrlarda, ya'ni so'nggi antik va ilk o'rta asr davrida Markaziy Osiyoda kandakorlik juda yuqori darajada rivoj topdi. Qimmatbaho metallardan hokimlar hamda a'yonlar uchun har xil nihoyatda chiroyli bezak buyumlari ishlatildi. Bu oltin yoki kumush buyumlarda to'ytomosha, taxtga o'tirish marosimlari, dunyoviy mavzular, shikor va kurash manzaralari, mifologik hamda epik qahramonlar, hayotiy mavjudot, parranda va boshqa tasvirlarni ko'rish mumkin edi.

IV asrda Markaziy Osiyo janubiy viloyatlarining Aleksandr Makedonskiy tomonidan bosib olinishi tasviriy va amaliy san'atning mahalliy an'analarining tarqalishiga imkon yaratdi.

VI—VII asrlarda badiiy metall buyumlar yuksak texnik sifatda bajarilganligiga Anikov lagani misol bo'la oladi. Bu laganda qal'a darvozasi oldidagi sahna tasvirlangan, «Yakkama-yakka olishuv» voqeasi tasvirlangan kosa o'sha davr hayotidan bir parcha bo'lib, undagi o'ymaning mayinligi, aniq nafosati, kompozistiyasi, ta'sirchanligi, kuchliligi bilan mashhurdir.

VIII—XIII asrlarda qimmatbaho metallardan qilingan idishlar islom dini

dunyasining ko'pgina burchaklarida urf bo'lib qolgan edi. Oltindan juda ko'p narsalar ishlanar, binolarning bezaklariga oltin suvi yugurtirilar edi. Keyinchalik esa xom ashyo sifatida birgina qimmatbaho metallarning o'zi kifoya qilmay hiyla arzon materiallar mis va uning turli qotishmalari ishlatildi. Qizil misdan har xil ko'zalar, dekchalar, idish-tovoqlar, jezdan va sariq misdan shamdonlar, poymonlar, oq mis hamda brinjidan ko'zalar, kir tog'oralar, katta-kichik piyola va shu kabilar yasalar edi.

Arxeologlarning topilmalari shuni ko'rsatdiki, arab istilosi davrigacha so'g'd aholisi ro'zg'orlarida badiiy metal buyumlar keng tarqalganligi isbotlandi. Hayvon shakli ifoda etilgan mis naqshlar, ya'ni yovvoyi hayvonlar kallasi va boshqalar topilgan.

IX—XIII asrlarda kumush ishlab chiqarish inqirozga uchraydi Temur hukmronligigacha buyumlar asosan bronza va misdan tayyorlangan.

IX—X asrlarda islom dini Markaziy Osiyo viloyatlariga kirib borishi munosabati bilan turli-tuman xalqlarning san'ati an'alarini o'zida mujassamlashtirgan yangi g'oyaviy uslub paydo bo'ldi. Musulmon Sharqda birinji va mis buyumlar ko'p tarqalgan bo'lsada keyinchalik ular o'rnini kumush va oltin metallar egalladi.

XI asrda hunarmandchilik, naqqoshlik yanada rivojlandi, jonivorlar tasviri va ertak syujetlari ustalar ish tematikasida yana ko'p vaqtgacha saqlandi. Bu davr buyumlari Termiz va Namangan shahar muzeylaridagi mis laganlar, oftobalar, ko'zgular, siyohdonlarda yuksak sifatga ega bo'lgan afsonaviy voqealarni ifodalagan.

Yuqorida aytib o'tilgan materiallardan yasalgan buyumlar oltindan juda kam farq qilar edi. XI asrda yashab o'tgan shoir Nosir Xusrav asarlarida brinjidan qilingan ko'zani ko'rib lol qolgani, uni oltindan hech farq qilmasligini bayon qilib o'tgan edi.

XI asrning o'rtalarida Markaziy Osiyo xalq amaliy san'atida katta burilish bo'ldi. Kandakorlik tez sur'atlar bilan rivojlandi, mis va uning qotishmalaridan yangi-yangi buyumlar paydo bo'ldi, to'g'ri to'rtburchakli barkashlar, qorni



sharsimon hamda bo'yniga naqsh solingan ko'zalar, yarim doira ketmonlar, siyohdonlar, hovoncha va boshqalar juda ko'p ishlatilar edi. Bu buyumlarning yuzalariga bo'rtma kandakorlik usulida naqsh ishlash kamayib borib, uning o'rniga o'yib naqsh ishlash (gravyura) urf bo'lib qoldi. Ishlangan bezaklar IX—X asrlarda beo'xshov qo'pol shaklini yo'qotib juda chiroyli ko'rinishga ega bo'ldi.

XI—XII asrlarda idishlarni qanotli sfinks xamda taqalarning, odambosh qushlar, arslonlar shakllari bilan bezash odat tusiga kirdi. Bu bezaklar ichida dunyoviy mazmundagi bezaklar, ya'ni saroy bog` manzaralari, to'y, bazm, saroy ichkarisi, shikor, naqsh turlaridan turunjlar ishlatildi. Turunj naqshlar juda ko'p ishlatilib buyumlarning ajralmas qismi bo'lib qoldi.

IX—XII asrlarda kandakorlik san'atida ham katta yangilik bo'ldi. Idishlarni bezashda yozuvchi naqshlar keng miqyosda qo'llanildi. Qadah va idishlarga har xil yozuvlar masalan, shon-sharaf, omad, tansihatlik, baxt-saodat, farovonlik degan naqshli yozuvlar «kufiy» va «nasx» usulida bitilgan. Bu yozuvli bezaklar shunday rivojlanib ketib juda mayda, juda nafis bo'lib, hattoki ularni o'qiy olish qiyin edi.

XIII—XV asrlarda kandakorlar bezaklarga kumush va oltin iplarni qadab zeb berib, naqshlarni judayam nafis bo'lishiga harakat qilishgan. Registon maydoni yaqinida topilgan xazinalar, ya'ni oltmishdan ziyod turli-tuman idishlar, piyolalar, ko'zalar, qopqoqlar, tagliklar, qozonchalar kandakorlikning XIV—XV asr badiiy an'analari to'g'risida ma'lumot bergan.

XIV asrda metallga badiiy ishlov berishda jiddiy siljish bo'ldi. Amir Temur o'z davrida xalq hunarmandchiligi rivojlanishiga katta e'tibor berdi. Amir Temur va temuriylar avlodi hukmronlik qilgan davrda buyumlar ishlab chiqarish yuksak darajada rivojlandi. Bu davr xalq amaliy san'atining barcha turlarida badiiy uslubning o'zgarishi bilan xarakterlidir. Metal buyumlarni bezash yanada o'zgardi, o'sdi. Buyumlar naqshlari yanada badiiylashdi, noziklashdi, mayda islimiy naqshlar, yozuvli naqshlar yanada ko'p ishlatildi. Masalan, Ermitajdagi shamdonlar, halqa, etti xil metallardan quyilgan qozonlar misol bo'la oladi. «Shamdonlar» sadaf suyak qadab ishlangan eshiklar uchun qilingan nafis shabaka halqalar o'simliksimon gullari zaminida yaratilgan. Bu yozuvlarda shamdonlarning

ishlangan vaqti (1397 yil) va usta Izaaddin Isfaxoniy nomi bitilgan. Qozon o'simliksimon naqsh va yuksak badiiy husnixat yozuvi bilan naqshlangan. Bu afsonaviy qozon dunyoda yagona bo'lib, uni tabrizlik Abdulaziz ibn Sharofiddin rixtagar yaratgan».

O'zbekiston hududidagi qazilmalardan topilgan metall buyumlarda chet ellik ustalar nomini uchratish mumkin. Chunki Amir Temur yurishlari vaqtida chet ellardagi ustalarni ko'chirib Samarqandga olib keltirgan». Ular o'z asarlarida mahalliy badiiy did va qarashlariga bo'ysungan.

Ispan elchisi Klavixoning zsdaliklarida Amir qabulida va ziyofatida bo'lgan vaqtida ko'rgan ajoyib idishlarni yuksak darajada bajarilganligi haqida aytib o'tgan. O'sha davrlarda Samarqand, Buxoro va Xivalarda yuqori sifatli va bejirim metall buyumlar ishlab chiqilgan.

«Buxoro va Xivadan Moskva hukmronlariga sovg'a sifatida taqdim etilgan buyumlar, shuningdek, Markaziy Osiyo savdogarlari keltirgan mollar ichida oltin suvi yuritilgan maysa bilan hoshiyalangan gurzi, o'q, o'tkir tig'li qilichlar, oltin suvi yuritilgan qilich qinlari, kumush zanjiralar, «tulunbosar» (do'mbiralar), oltinrang va o'trang bo'yoqlar yuritilgan qilichlar tilga olinadi, tarixiy hujjatlarning guvohligiga qaraganda, XVI—XVII asrlarda Samarqand va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida mahoratli ustalar juda ko'p bo'lgan».

XVI—XVIII asrning boshlarida Markaziy Osiyoda xo'jalikning turg'unlik davri bo'ldi. Chunki ichki notinchliklar ishlab chiqarishda va savdoga katta ta'sir etdi. Hunarmandchilik buyumlari ishlab chiqarish to'xtadi, lekin qurol-yarog'lar ishlash va uni bezagi yanada rivoj topdi. Buxoro, Xiva, Samarqand va Farg'ona vodiylardagi shaharlar aslaha va jang kiyimlari tayyorlaydigan asosiy markazlar hisoblangan. Amir hamda sarkardalar uchun mo'ljallab yasalgan qalqonlar, shamshirlar, dubulg'alar, oyboltalar, enli kamarlar, xanjarlar, o'yma naqshlar, qimmatbaho metall va rangbarang toshlar bilan bezatilgan. Keyinchalik esa uchta markazlashtirilgan davlat Buxoro, Qo'qon va Xiva xonliklar tashkil etilib xo'jalik ishlari qayta tiklana boshladi. Hunarmandchilik asta rivojlana boshladi.

XVIII—XX asrlarda kandakorlik yaxshi rivojlangan bo'lib, Buxoro, Qo'qon,

Xiva, Samarqand, Shahrisabz, Qarshi hamda Toshkent shaharlari kandakorlik buyumlari chiqariladigan markazlar bo'lgan. Boy xonadonlari naqsh tushirilgan idishlar bilan bezatilgan. Ular xonadon sohibining davlatmandligini namoyish qilib turgan. XIX asr o'rtalarida vopurushlar paydo bo'lgan. Farg'ona vodiysida do'kondor Buxoro va Toshkentda esa vopurush (olibsotar)lar deb yuritiladi. XIX asr o'rtalaridan boshlab vopurushlar hunarmandlardan buyumlarni arzon baholarga sotib olar edilar. Ularni savdogarlarga oshirilgan narxda o'tkazganlar yoki bozorlarga olib borib sotganlar. Ular xalq amaliy san'ati ustalarining tayyorlagan gilam, oftoba, quticha, qilich, har xil idish va boshqalarini xalqqa etkazib berishda «Savdo vositachilari» rolini o'ynaganlar. Markaziy Osiyoning Rossiyaga qo'shilishi fabrika mollarni kelishi va uni shu erda ishlab chiqarilishi mahalliy hunarmandchilar ishiga jiddiy ta'sir etdi. Shuning uchun ham hunarmandlar talabiga bo'lgan ehtiyoj pasayib ketdi.

1914—17 yillarda urush tufayli xo'jalik qiyinchiliklari Markaziy Osiyoga metall, asosan mis taxtalari olib kelish kamayib, badiiy metall ishlab chiqarish pasayib ketdi, shogirdlar an'anasiga e'tibor berilmadi. Shuning uchun 30 yillarga kelib misga zarb qilish ustalari juda kamaydi. 1930 yilda Samarqand badiiy bilim yurti tashkil etildi. 1932 yilda esa Toshkentda badiiy o'quv ishlab chiqarish kombinati tashkil etildi. Buxoroda esa shogirdlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Bu o'quv ishlab chiqarish kombinatlariga Xiva, Qo'qon, Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlardan kandakor, kulol, yog'och o'ymakor va boshqa san'at turlari ustalari taklif qilindi. Ular orasida kandakor usta S. Xudoyberganov ham bor edi.

1960 yillarda davlat sanoat korxonalarida tashkiliy pala-partishlik oqibatida kandakorlik buyumlari ishlab chiqarish inqirozga duch keldi. Qo'qon va Xivadagi kandakorlik ishlari uncha-muncha davom etdi.

1967 yilda Buxoroda kandakorlik to'garak-ustaxonasi tashkil etildi. Unda mashhur kandakor, ustazoda Salimjon Hamidov rahbarlik qildi. U kishi qisqa muddat ichida 50 dan ortiq shogird tayyorladi.

1973 yilda usto Salimjon Hamidov vafotidan keyin shogirdlari uning ishini davom ettirdi.

Bugungi kunga kelib usto Salimjon tomonidan etipggirilib chiqargan kandakorlar ham e'zoz va obro' topib o'z ishlarining mohir usta kandakorlaridirlar. Ular kandakorlikni yanada ravnaq topishi uchun tinimsiz ishlayaptilar va izlanmoqdalar.

Ayniqsa 1991 yildan hozirgacha kandakorlik san'ati barq urib, gullab yashnayapti. Kandakorlik maxsulotlari rang barangligi, naqsh kompozistiyasining nixoyatda boyligi, ish sifatini juda ham nafisligi va ko'rkamligi kishini hayratga qoldiradi. O'z ustida ishlayotgan ustolar soni ko'pchilikni tashkil qiladi. Jumladan A.Hamidov, M.Axmedov, S.Muxsinov, U.Aliev, T.Qosimov, R.Fatullaev, R.Avezov, R.Ro'ziev, D.Halimova kabi buxorolik kandakor ustalar hamda ularning iktidorli shogirdlari I.Muxsinov, Sh.G`ulomov, Q.Saidov, B.Halimov, J.Qosimov, J.Sodikov, D.Fayzullaevlar yuksak saviyadagi badiiy ahamiyatga ega bo'lgan san'at asarlarini yaratib kandakorlik san'atining rivojiga o'z hissalarini ko'shib kelmoqdalar.

## **1.2. Mustaqillik yillarida xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`ati**

Mustaqillikka erishgandan so`ng milliy qadriyatlarimizni tiklash, o`zligimizni anglash, ota-bobolarimiz qolidirgan boy merosni qadriga yetish va ulardan o`z hayotimizda, faoliyatimizda unumli foydalanishbiz erishgan va erishayotgan yutuqlarimizning garovi ekanligini qayd etib o`tishimiz joiz bo`lmasa kerak. Yaqin o`tmishda o`zbek amaliy bezak san`ati va xalq hunarmandchiligining eng rivojlangan ganchkorlik, naqqoshlik, yog`och, tosh va suyak o`ymakorligi, kandakorlik, pichoqchilik, zargarlik, kashtachilik, zardo`zlik, gilamchilik, kigizchilik, savatchilik, bo`yrachilik kabi turlarining o`ziga xos bajarish texnologiyalari, haqiqiy milliy nomlari, ularga xos atamalar, bu san`atlarga xos maktablar, uslublar hamda shu sohalarda nom qozongan ustalarning xizmatlari unuta borilib, yo`qolib ketish xavfi ostida qolgan edi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan 1997 yil 31 martda "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`atini yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g`risida"gi farmon<sup>1</sup> va qator qarorlar qabul qilindi. Mazkur farmon uy sharoitida yakka tartibda faoliyat yuritayotgan hunarmandlar uchun katta imtiyozlar yaratdi. 1997 yil 1-apreldan boshlab, xonadonida badiiy hunarmandchilik va amaliy san`at buyumlarini ishlab chiqarayotgan yakka tartibda mehnat bilan band bo`lgan shaxslar 5 yil muddatga daromad solig`i to`lashdan ozod qilinib, ishlab chiqarish mahsulotlarini respublikamizdan tashqariga sotishi chog`ida ulardan olinadigan boj haqi bekor qilinishi belgilandi.

O`zbekistonda milliy amaliy san`at va hunarmandchilikni rivojlantirishda Respublika Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 10 iyul 346-sonli qarorida "Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`atini yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab quvvatlash chora tadbirlari to`g`risida" gi qarori alohida ahamiyat kasb etdi.

---

<sup>1</sup>Халқ бадий хунармандчилиги ва амалий санъатини янада ривожлантиришни давлат йўли билан қўллаб-қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримов фармони // Ўзбекистон овози. 1997.- 1 апрель.

Ana shu qaror asosida "Musavvir" ilmiy ishlab chiqarish Markazi tashkil etilib, uning qoshida "Hunarmand" uyushmasi faoliyat ko`rsata boshladi. Bu uyushma o`z saflariga minglab tajribali, shuningdek, yosh ustalarni birlashtirdi. Ularning ijodiy ishlari uchun har tomonlama shart sharoitlar yaratib berilmoqda, ma`naviy va moddiy yordam ko`rsatilmoqda. Bugungi kunda respublikamizda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`atining quyidagi turlari mavjud:

### **Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`ati buyumlari asosiy turlarining ro`yxati**

1.2. 1-jadval<sup>2</sup>

№	Asosiy turlari	Ishlab chiqariladigan mahsulotlar nomi
1	<b>Ganch o`ymakorligi</b>	Qandil, ko`zgu, davra, oval va burchak shaklidagi naqshlar, muqarnas (friz) karniz, panjara, haykalcha, shift va devor bezaklari va asoslari, ganchdan yasalgan arxitektura va qurilish elementlari, ganchdan yasalgan boshqa amaliy bezak mahsulotlari.
2	<b>Yog`och o`ymakorligi</b>	Yog`och o`ymakorligi uslubida yasalgan barchaamaliy bezak mahsulotlari.
3	<b>Suyak o`ymakorligi</b>	Yodgorlik sovg`alar, mayda haykalchalar, qutichalar, pichoq, qilich, xanjar va boshqalar. Suyakdan bezak bergan holda tayyorlagan mahsulotlar va suyakdan yasalgan boshqa amaliy bezak mahsulotlari.
4	<b>Tosh o`ymakorligi</b>	Yodgorlik sovg`alar, mayda haykalchalar, qutichalar, yozuv dastgohlari, zinapoya tutqichi, shamdon, namoyon, qimmatbaho va oddiy toshlardan yasalgan taqinchoqlar va toshdan yasalgan boshqa amaliy bezak mahsulotlari.
5	<b>Yog`ochdan tayyorlanadigan</b>	Oshxona anjomlari, yog`och va fanerdan tayyorlangan har xil hunarmandchilik mahsulotlari. Belanchaklar, bolalar

<sup>2</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2005 йил 28 мартдаги ПФ№ 3588-сонли фармониغا иловадан.

	<b>xalq hunarmandchilik mahsulotlari</b>	aravachasi, beshik va uning anjomlari, xontaxta, sandiq, eshik, rom, surat uchun romlar, tokarlik uskunasi tayyorlangan har xil shaklli hunarmandchilik mahsulotlari, mualliflik va milliy uslubda yasalgan mebel, narda, shaxmat taxtasi va donasi, namoyon va yog`ochdan qo`ldan yasalgan boshqa mahsulotlar.
6	<b>Metall va tunikadan yasalgan buyumlar</b>	Guldor va jimjimdor tarnov va trubalar, quyma buyumlar (eshik va deraza tutqichlari, ilgak, zanjir, qo`ng`iroq, shamdon va boshqalar), oshxona anjomlari (osh pichoq, kapkir, cho`mich, chovli, elak, manti qasqon va boshqalar), uy-ro`zg`or buyumlari (kiyim ilgich, qo`l yuvgich, ketmon, tesha va boshqalar), yog`och, tosh va ganch o`ymakorligi uchun asbob-uskunalar, yodgorlik sovg`alari (ziraklar, uzuklar, bilakuzuklar va turli taqinchoqlar) va qo`lda ishlangan boshqa mahsulotlar.
7	<b>Qilich, xanjar va pichoqlar</b>	Milliy uslubda yasalgan barcha turdagi qilish, xanjar va pichoqlar.
8	<b>Kandakorlik (misgarlik) buyumlari</b>	Mis, alyuminiydan yasalgan buyumlar (choynak, qumg`on, oftoba, obdasta, choy idish, lagan, piyola, likopcha, patnis, guldon, shamdon, qandil, eshik xalqalari, pichoq, qilich va xanjar dastalari va qinlari, oshxona anjomlari va boshqalar) va boshqa kandakorlik (misgarlik) mahsulotlari.
9	<b>Chinni, fayans va kulolchilik buyumlari</b>	Xalq amaliy bezak va hunarmandchilik uslubida ishlangan barcha chinni, fayans va kulolchilik buyumlari, arxitektura bezaklari, naqshin va tushirilgan naqsh (trafaret) uslubida chinni, fayans va kulolchilik buyumlariga bezak berish, tandir.
10	<b>Qimmatbaho metallardan zargarlik</b>	Qonunga muvofiq probali va tamg`alanishi shart bo`lgan qimmatbaho metallardan oltin, kumush, platina va palina guruhiga tegishli (iridiy, radiy, ruteniy va osmiy)dan ijodiy

	<b>buyumlari</b>	ustaxonalarda mualliflik va milliy uslubda yasalgan zargarlik buyumlari.
11	<b>Qo`lda to`qilgan gilam to`qimachiligi</b>	Gilam va gilamchalar, polo, xurjun, namatli buyumlar, sholcha, joynomoz, julxirs (uzun patli gilam).
12	<b>Qo`lda to`qilgan gazlamalar va qo`l to`qimachiligi</b>	Atlas, beqasam, adras, tabiiy ipak, paxta, jun va sun`iy ipdan to`qilgan gazlamalar, qo`l va uskuna uslubida to`qilgan buyumlar (momiq va junli ro`mol, qo`lqop, paypoq, bosh kiyimlar va boshqalar).
13	<b>Shisha buyumlari</b>	Mayda haykalchalar, yodgorlik buyumlari, taqinchoqlar (tumorlar, tasbehtar, munchoqlar), oyna va ko`zguga naqsh berilgan hunarmandchilik mahsulotlari.
14	<b>Zardo`zchilik buyumlari</b>	Zardo`zchilik uslubida tayyorlangan barcha turdagi kashtachilik mahsulotlari.
15	<b>Kashtachilik buyumlari</b>	Qo`lda va uskunada bajarilgan barcha turdagi kashtachilik mahsulotlari
16	<b>Gul bosilgan gazlamalar va chokli buyumlar</b>	Har xil matolarga gul bosish usulida bajarilgan barcha hunarmandchilik mahsulotlari, batik, milliy kiyimlar, ko`rpa va ko`rpachalar, yostiqlar, belbog`lar, jiyaklar, sumkalar va boshqa chokli hunarmandchilik mahsulotlari.
17	<b>Milliy choponlar va do`ppilar</b>	Xalatlar (chopon, yaktak, nimcha, bolalar choponi, to`y choponi), do`ppilar, telpaklar, qo`lda to`qilgan matolardan ishlangan bosh kiyimlar.
18	<b>Musiqa asboblari</b>	Barcha turdagi milliy musiqa asboblari.
19	<b>Miniatyura, rang tasvir, naqqoshlik va sirlangan buyumlar</b>	Devorda, qog`ozda, charmda, matoda, yog`ochda, kartonda, suyakda, sirlangan buyumlarda ishlangan miniatyura, rang tasvir va naqqoshlik uslubidagi mahsulotlar.



20	<b>Hajmli va shaklli qoliplarda quyilgan buyumlar</b>	Tabiiy va sun`iy qurilish xom-ashyolaridan quyma uslubda ishlangan buyumlar (sharafa, muqarnas, karniz, qandil, davra, oval va burchak gullari, ustun va boshqalar), arxitektura bezaklari va barcha turdagi mis, bronza, cho`yan, alyuminiydan qo`lda quyma uslubda ishlangan hunarmandchilik mahsulotlari.
21	<b>Mayda haykaltaroshlik buyumlari</b>	Tabiiy va sun`iy xom-ashyolardan (ganch, mis, bronza, alyuminiy, suyak, yog`och, tosh, sopol, chinni, fayans va boshqalar)dan yasalgan barcha turdagi haykaltaroshlik buyumlari.
22	<b>O`yinchoqlar</b>	Yog`och, metal, mato, ganch, sopol va boshqa tabiiy hamda sun`iy xom-ashyolardan yasalgan o`yinchoqlar va qo`g`irchoqlar.
23	<b>Qo`lda to`qish</b>	O`simlik novdalari (qamish, tol, poxol, tok novdalari va boshqa har xil daraxt novdalari)dan to`qilgan hunarmandchilik mahsulotlari.
24	<b>Charm mahsulotlari va milliy poyafzalchilik</b>	Ayollar mahsi va kovushi, erkaklar mahsi va kovushi, brezent, namat etiklar, ayollar uchun sandal, qo`lda to`qilgan tuflilar, egar-jabdug` anjomlari, charmli bo`yinbog`, belbog`, qayish va ularning anjomlari, qo`lda teri oshlash va undan milliy uslubda ishlangan nimcha.
25	<b>Yodgorlik buyumlari</b>	Tabiiy va sun`iy xom-ashyolardan tayyorlangan yodgorlik va sovg`a buyumlari (tumor, tasbeh, munchoq, zirak, uzuk, bilakuzuk, taqinchoqlar, kamar).

Uyushmaning deyarli barcha viloyatlarda bo`linmalari ochilgan bo`lib, u yerdagi ustalar mahalliy amaliy san`atni milliy badiiy an`analarini rivojlantirib yuksak badiiy saviyali asarlar yaratmoqdalar. Hozirgi davr xalq ustalaridan A.Akbarov, A.Abdullayev, A.Umarov, S.Rahmatullayev, A.Karimov, M.Murodov, B.Rahmonberdiyev, N.Oblaqulov va boshqa ustalar xorijiy

mamalatlarda o`tkazilgan qator ko`rgazmalarda o`z asarlari bilan qatnashib kelmoqdalar. Jumladan, Fransiyaning Parij shahrida, Germaniyaning Berlin shahrida, Malaziyaning Kuala-Lumpur shahrida, Yaponiyaning Tokio, Hindistonning Dehli, Moskva va Olmaota shaharlarida o`tkazilgan ko`rgazmalar shular jumlasidandir.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`atini rivojlantirishni rag`batlantirishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida”gi 2008 yil 1-apreldagi 3983-sonli farmonining 1-bandiga asosan, uy sharoitida xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`ati buyumlarini ishlab chiqarish bo`yicha yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan band bo`lgan shaxslar tomonidan qat`iy belgilangan soliqni to`plash yuzasidan imtiyoz berildi.

Prezidentimizning “Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`atini yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlash chora-tadbirlari to`g`risida”gi Farmoni ijrosi doirasidagi amaliy ishlar hunar egalarining iqtidor va intilishlariga qanot bag`ishladi. Buni Namangan misolida ko`rish mumkin. Bugun Namanganda “Hunarmand” uyushmasi atrofiga 850 hunarmand birlashib, xalq ijodiyotining 25 yo`nalishi bilan shug`ullangan holda mingdan ortiq turda mahsulot tayyorlamoqda. Ular orasida iqtidori va fidoyi mehnati bilan elga tanilgan kishilar ham anchagina. Jumladan, yog`och o`ymakor ustasi Maxmudjon Jo`rayev va amaliy san`at ustasi Asqarbek Akbarov “O`zbekiston Respublikasi “Xalq ustasi” unvoni bilan taqdirlangan bo`lsa, nogironligiga qaramay zardo`zlik hunarini e`zozlab kelayotgan Zebo Azimboyeva “Jasorat”, atlaschi Latifjon Ahmadjonov va chinnisoz Ne`matjon Soliyev “Shuhrat” medali sohibilari bo`lib, barcha yoshlarni ijodiy mehnatga chorlamoqdalar. Viloyatda 83 ta usto-shogird maktablari tashkil etilgan bo`lib, birgina joriy yilning o`tgan ikki oyi davomida ularga 378 nafar shogirdlar jalb etildi. Keyingi uch yil davomida mazkur maktablarni bitirib chiqqan 759 nafar ustazodalarning 123 nafari uyushma a`zoliciga qabul qilindi<sup>3</sup>.

Keyingi yillarda yog`ochga qayta ishlov berish bo`yicha faoliyat

---

<sup>3</sup>[www.namangan.uz](http://www.namangan.uz)

ko`rsatayotgan usta hunarmandlar faoliyatida ham ijobiy o`zgarishlarni ko`rish mumkin. Yog`och o`ymakor ustasi Maxmudjon Jo`rayev yaratgan naqshinkor buyumlar bugungi kunda o`z qadr-qimmatini topdi. Uning bir qancha tarixiy binolarni ta`mirlashga va milliylik aks etgan ijodiy ishlari munosib baholanib 1999 yili «O`zbekiston Xalq ustasi» unvoni bilan taqdirlandi. Bugungi kunda usta Maxmud yog`och o`ymakorlik ishlarini yoshlarga o`rgatish borasida katta izlanishlarni olib bormoqda. Shogirdlarining soni 40 nafardan oshganligiga qaramay har biri bilan alohida-alohida shug`illanishga ulgiradi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun o`tkaziladigan «Tashabbus» tanlovining doimiy ishtirokchisi. Hozirda usta uy muzeyi tashkil qilish maqsadida astoydil ish olib bormoqda<sup>4</sup>.

Yosh iqtidorli ustalardan A.Rahimov (Toshkent), M.Rahimov (Rishton), N.Obloqulov (Urgut), A.Nazrullayev (G`ijduvon), M.Alimbayev (Buxoro), X.Haqberdiyev (Samarqand) kabilar badiiy kulolchilik yo`nalishida samarali mehnat qilmoqdalar.

Mustaqillik yillarida O`zbekiston amaliy bezak san`atida badiiy gazlamaning batik turi rivojlandi (1992-yilda tuzilgan «Batik» guruhi: L.Sayfi, I.Lisenko, O.Kaleslikova, N.Kuchina, M.Strelnikova, R.Mirahmedovalar). Jahon san`ati namunalari rassomlar uchun ilhom manbayiga aylandi. Ularning asarlarda islamiy naqshlar bilan bir qatorda hind, yapon, qadimgi misr, afrika san`ati mavzulari uchraydi. «Batik» guruhi va L.Sayfi liboslar to`plamida sharq madaniyati an`analari yaqqol namoyon bo`ldi (anorgul, bodomgul, shakllari, an`anaviy, o`zbek va turkman gilamdo`zligiga xos handasaviy naqshlar, zardo`zlik san`atiga oid tasvirlar va boshqalar). Guruh tomonidan issiq batik usulida ishlangan «Bahor» mahobatli namoyonlar turkumi («Sheraton-Toshkent» mehmonxonasi, 1998-99-yillarda) ijodkorlarning o`rta asrlar sharq minatyura san`ati an`analariga ijodiy yondashuvining yorqin namunasi. «Batik» guruhida L.Boymatova, A.Allaberginova ham ijod qilmoqdalar. L.Boymatova ijodining negizini manzarali, avangard yo`nalishidagi asarlar tashkil etsa, A.Allaberginova

---

<sup>4</sup><http://fdculture.com>

ijodida esa miniatyura, me`moriy yodgorliklar, xalq amaliy bezak san`ati mavzularidan faol foydalanishi o`ziga xosdir<sup>5</sup>.

Naqqoshlik sohasida esa M.To`rayev, A.Ilhomov, B.Rahmonberdiyev, S.Shukurov, X.Nuraliyev, A.Karimov (Toshkent), A.Akbarov, M.Husainov (Namangan), J.Jamolov, Sh.Mahmudov, S.Mahmudov (Qo`qon), O.Ergashyev, S.Akbarjonova (Andijon), M.Boboyev (Farg`ona), respublikamizda shuhrat qozondilar.

Hozirda ganch o`ymakorligi Toshkentda tez rivoj topib poytaxtimizning turli jamoat binolarini bezatishda keng qo`llanilmoqda. Uning vakillari qatoriga A.Sultonov, A.Po`latov, M.Sultonov, M.Usmonov, M.Murodov, Z.Yusupov, U.Tohirov, A.Umarov (Toshkent), B.Davlatov (Xorazm), A.Abdurahmonov (Qo`qon) kabi ustalarni kiritish mumkin.

Mustaqillik yillarida, ayniqsa yog`och o`ymakorligi oldinlab ketdi. Yog`och o`ymakorligi san`ati qadimdan Xorazm, Buxoro va Samarqandda rivoj topgan bo`lsada, hozirga kelib Toshkentlik ustalar bu yo`nalishda karvonboshilik qilmoqdalar, O.Fayzullayyev, S.Raxmatullayyev, A.Abduraxmonov, A.Azlarov, X.Odilovlar shular jumlasidandir. Xorazmlik X.Bog`ibekov, Andijonlik Y.O`taganov, Qo`qonlik X.Umarov, A.Abdullayevlar ham yog`och o`ymakorligi bo`yicha yuksak badiiy saviyali asarlar yaratmoqdalar. Bir guruh o`ymakorlar 1994 yilda “Yunusobod” tennin korti, “Turkiston” kontsert zali va “Algoritm” zavodi; 1995 yilda O`zbekiston Ichki Ishlar vazirligi binosi; 1996 yilda Temuriylar tarixi Davlat muzeyi; 1997 yilda Oliy Majlisning yangi binosi, “Guliston” sport majmuasi; 1996-98 yillarda Toshkent shahar hokimligining yangi binosi, O`zbekiston Prezidenti Apparating Matbuot markazi; 1998-99 yillarda O`zbekiston Prezidentining “Oq saroy” qarorgohi, Davlat “sirk”i binosining eshigi, “Xotira va Qadrlash maydoni” majmuasi, “Sheroton-Toshkent” mehmonxonasi; 2000 yilda O`zbekiston Banklar Assotsiatsiyasi binosi, O`zbekiston Respublikasining Hindiston, Germaniya, Malayziya (1993 yilda) davlatlaridagi elchixonalarining binolari, shuningdek, Toshkent shahri Saylgoh

---

<sup>5</sup> Bulatov S.S., Shabaratov P.P., Rasulov M.A. Naqqoshlik. T.: “Iqtisod - Moliya”. 2010. B.28.

ko`chasiidagi choyxona ayvoni, Samarqand shahridagi Imom al-Moturudiy majmuasini, Chelak tumanidagi Imom al-Buxoriy majmuasini, Bulung`ur tumanidagi Juma masjidini, Farg`ona viloyatidagi Ahmad al-Farg`oniy majmualari shular jumlasidandir<sup>6</sup>.

“Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`atining yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlash chora tadbirlari to`g`risida”gi Farmon bir necha muhim, dolzarb masalalarni o`z ichiga olishi bilan birgalikda – ta`lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talabi darajasiga ko`tarish, milliy kadrlar tayyorlashning yangi tizimini barpo qilish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalashdan iborat. Hozirgi kunda respublikamizda ta`lim-tarbiyaning jahon standartlari talab darajasida bo`lishi alohida ahamiyatga egadir. Amaliy san`atdan yuqori malakali ustalar yetkazib chiqaradigan o`rta maxsus o`quv yurtlari san`at litsey va kollejlari Toshkent, Buxoro, Navoiy, Samarqandda ochilgan.

Hunarmandlarga bugun ko`pgina shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Jumladan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`atini rivojlantirishni rag`batlantirishga oid qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida” 2008 yil 1 apreldagi 3983-sonli Farmonining 1-bandida nazarda tutilgan, uy sharoitida xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`ati buyumlarini ishlab chiqarish bo`yicha yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan band bo`lgan shaxslar tomonidan qat`iy belgilangan soliqni to`lash yuzasidan soliq imtiyozining amal qilish muddati Prezidentimizning 2010 yil 30-martdagi PF-4210-sonli Farmoni<sup>7</sup>ga binoan “Hunarmand” uyushmasi a`zolari – yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun 2012 yilning 1 aprelegacha uzaytirildi<sup>8</sup>. So`ngi yillarda amaliy bezak san`ati 20 dan ortiq sohani birlashtirgan badiiy hunarmandchilik, yengil (chinni, badiiy to`qimachilik)

---

<sup>6</sup>АхмедовМ.Б. Ёғочўймакорлиги. Т., 2006. Б.84.

<sup>7</sup>Халқ бадий хунармандчилиги ва амалий санъатини ривожлантиришни янада қўллаб-қувватлаш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2010 йил 30-мартдаги Фармони. //Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2010. №13.

<sup>8</sup>www.gov.uz

va mahalliy (kulollik, yog`ochsozlik, gilamchilik, kashtachilik, zardo`zlik va boshqalar) sanoat korxonalarini o`z ichiga olgan badiiy san`at va yakka tartibda ijod qilayotganlar ko`rinishida rivojlandi. Kashtachilik, gilamchilik, kigizchilik, naqqoshlik bo`yicha ustalar kasanachilik guruhiga birlashgan<sup>9</sup>. Kasanachilik mehnatini rivojlantirish borasida mavjud salohiyatdan samarali foydalanish maqsadida Prezidentimizning 2007 yil 6 aprelda qabul qilingan “Aholi bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora tadbirlari to`g`risida”gi 616-sonli qarori<sup>10</sup>, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oilaviy tadbirkorlik hamda hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va kengaytirish chora tadbirlari to`g`risida»gi 2009-yil 29iyuldagi 216-sonli qarorlari hunarmandlarni kasanachi sifatidagi faoliyatini qo`llab-quvvatlashdagi amaliy ishlardir.

---

<sup>9</sup>Bulatov S.S., Shabaratov P.P., Rasulov M.A. Naqqoshlik. T.: “Iqtisod - Moliya”. 2010. B.29.

<sup>10</sup>Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг 2010 йилда мамлакатимзни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари ва 2011 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағишланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги “Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади” мавзидги маърузасини ўрганиш бўйича ўқув-услубий мажмуа. Т.: 2011. “Иқтисодиёт”, 147 Б.

### **1.3. O`zbekiston kandakorlik maktablari va ularning ijodkor namoyondalari**

Kandakorlik va zargarlik san'ati buyumlari hozirgi O'zbekiston xududida uy jihozlari hamda ayollar taqinchoklari sifatida qadimdan bezak vazifasini bajarib kelgan. Ular o'ziga xos shakllari, texnik va badiiy uslublari bilan Samarqand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz, Qarshi, Qo`qon Marg`ilon, Andijon, Toshkent singari muayyan joylarning maxalliy xususiyatlarini aks ettiradi.

Ko`hna san'atning ushbu turlarida foydalaniladigan texnik va boshqa xilma-xil uslublarning ko'pligi tufayli naqshinkor bezagi, detallari va sayqallashning rang-barang turlari bilan farqlanuvchi o'ziga xos yo'nalishlar yuzaga keldi. Bu asarlar xilma-xil metallardan — tilla, kumush, mis, jezdan yasalib, qimmatbaho va yarim qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan.

Amaliy san'atning ushbu turlariga oid buyumlar buxorolik, xivalik, samarqandlik, qarshilik va qo`qonlik ustalar tomonidan yasalgan. XX asr o'rtalarida dong taratgan ustalardan Xudoybergan Matchonov, Otajon Madrahimov, Otaulla Muxammadrajabov, Lutfulla Fozilov, Salimjon Hamidov va boshqalar ma'lum.

Hozirgi paytda xalq san'atining ushbu sohalarida Abdurashid Madaliev, T`olqin va Saidmurod Yunusxo'jaev, Sharafutdin Nizomov, Jumanazar Masharipov, Inom Salimjonov, Fozil Obidov, Niyozali Xolmatov, Zokir G`afurov, Ismoil Qo'chqorov singari iste'dodli ustalar ishlab turishibdi.

«Nigoriiston» Respublika xalq san'ati firmasiga birlashgan bu ustalar qadimgi ustalar an'analarini meros qilib olgan va muvaffaqiyat bilan rivojlantirib, o'z asarlariga yangiliklar kiritishmoqda. Shu bois ular yasagan buyumlar o'z ijodkorlarining qalb boyligini, poetik-romantik his-tuyg`ularini hamda atrof dunyo, tabiat, go'zallik tug`risidagi tasavvurlarini aks ettiradi.

Kandakorlar asosan naqsh chekilgan patnis (la'li)lar, qumg'on, oftoba, piyola, pichoq qinlarini yasashga ixtisoslashgan bo'lishsa, zargarlar ayollarning bilaguzuk, xuqqa, sirg'a, uzuk, tumor, marjon singari va boshqa milliy takinchoqlarini yasashadi. Ular yaratgan asarlarda obrazlar makon bilan borliq murakkab kompozistiyalar orqali ochib beriladi hamda yarim qimmatbaho toshlar va metallarning dekorativ imkoniyatlari yorqinroq namoyish etiladi. Sayqal berilgan metall buyumlar yaltirab turadi.

Kandakorlik buyumlari sodda bo'lib, ularda texnik uslublar takrorlanmaydi, nafis o'ymakorlik bilan zargarona nazokat, ohangdorlik, rang-barang naqshlar hamda kompozistion xushbichimlik uyg'unlashib ketadi.

Yopishtirma detallar, feruza, marjon, rangli shisha bilan ziynatlangan bugungi kandakorlik va zargarlik san'ati buyumlari shaklan go'zal va nafisligi, naqsh ma'no-mazmunining jiddiyligi hamda sayqallanganligi, chuqurligi, zargarona nafosati ila ajralib turadi.

Xalq san'atidagi bu ajoyib va istiqbolli yo'nalishlar yanada rivoj topib, respublikamiz aholisi hamda chet ellik mehmonlarda katta ehtiyoj uyg'otmoqda.

Xalq san'atining bu turi bo'yicha marg'ilonlik usta Mahmudjon Madaliev (1896—1988) naslidan bo'lgan ustalar unumli mexnat qilishmoqda. Mahmudjon Madaliev asosan mis va jezdan an'anaviy ro'zg'op buyumlarini yasagan. To'qqiz nafar farzandi bo'lgan bu katta oilada metallga badiiy ishlov berish san'ati avloddan avlodga o'tkazib kelinmoqda. Ustalarning Marg'ilondagi xonadonida turar joydan tashqari, ustaxona (do'kon) hamda katta ombor bo'lib, oila boshlig'i bu yerni bamisoli yuzlab mis va jezdan yasalgan qadimgi ro'zg'or buyumlari to'plangan uy-muzeyiga va ijodiy laboratoriyaga aylantirgan.

Bu laboratoriyada doyra va to'rtburchak patnislar, har xil shakldagi xushbichim suv idishlar, lampalar, samovarlar, dastsho'ylar, choydoshlar, la'lilar, ko'zalar, chilimlar, natnis, piyola va taqsimchalar, shamdonlar, isirikdonlar va sh.k.lar saqlanadi. Bu buyumlar shu qadar ko'pki, usta Mahmud ota vaqt o'tishi bilan



ko'karib ketgan buyumlarni artib yaltiratar ekan, mis va jez maxalliy aholi ming yillar davomida foydalanib kelayotgan ro'zg'or buyumlarini yasash uchun yaratilib, shunga xizmat qilib kelayotganini o'g'illariga doimo uqtirardi.

Usta Mahmud ota o'z xonadonidagi ustaxonada ko'p yillar davomida o'g'illari bilan birga o'z ishining davomchilariga mis karlik buyumlari yasashni o'rgatib keldi, metallga naqsh chekish borasida esa har bir ug'liga qobiliyatiga va istagiga ko'ra mustaqil ish qilib ko'rish imkonini berdi. Misgar ustaning o'g'illari bolg'achaning jarangdor tovushiga bolalikdan oshno bo'lib, otalarining «sirli» ishini gudaklarcha soddadillik bilan ko'zatib kelishgan. Mohir qo'llar antiqa shakldagi o'xshashi yo'q buyumlarni yaratishini ko'rishgan. Katta oilaning har bir a'zosi shu tarika ustaxonada otasining yonida bo'lib, ushbu qo'hna hunarga mehr qo'ygan. Misgar usta o'g'illaridan birortasini qo'lga asbob olib, mashaqqatli diqqinapas mehnatga kirishishga majbur qilmagan holda, ularda otashkor hunarga mehr uyg'otdi. Usta bir vaqtlar otasidan o'rgangani kabi, o'g'illari ham uning san'atini egalladilar. Damni shishirishar, asbob-uskuna va materiallarni ishga shay qilib kuyishardi. Hamma ish boshidan boshlanardi, ya'ni o'zlari qadimgi namunalar bo'yicha shaklni o'ylab topishar, qalamda ixcham naqsh nusxasini chizishar va uni qolipga o'tkazib, asbobni tutishni o'rganishardi.

Aka-uka Madalievlarining har biri endilikda o'zining «oilaviy pudrat»ini tashkil qilgan. Lekin ularni iste'dod, ilhom, ularga xunar o'rgatib, go'zallik olamini namoyon qilib, oq fotiha bergan ota sabog'i birlashtirib turadi.



Kandakori buyumlarning naqshinkor bezaklari va dekorativ shakli o'tmishda yomon ko'zdan hamda balo - qazodan asrovchi vosita bo'lib ham xizmat qilgan, ular odam zotini saqlab qolish va davom ettirishga qodir g'ayritabiiy mu'jizakor kuch hisoblangan.

XX asr o'urtalarida alyuminiy va boshqa materiallardan fabrikada tayyorlangan mahsulotlar paydo bo'lganidan so'ng barcha mintaqalarda mashxur

va an'anaviy kandakori buyumlarga talab keskin kamayib ketdi. Shunga qaramay chinakam misgar ustalar metallardan oz bo'lsa-da, g'aroyib buyumlar yasashda davom etishdi.

Xalq amaliy san'at turlaridan biri bo'lgan Buxoro kandakorligi haqida fikr yuritar ekanmizalbatta hozirgi zamon kandakorligiga asos slogan usto S.Hamidov ijodi va faoliyati to'g'risida to'xtalib o'tishimiz zarur.Usto S.Hamidov ijodi va faoliyati to'g'risida to'xtalib o'tishimiz zarur. Usto S.Hamidov 1920 yil Buxoro shahrida kandakorlar oilasida tug'idi. U kishi bobosi Hamid (kandakor) otasi Abdusalom X (misgar kandakor)ni ijodlarini o'rgandi va zamonaga xos yangilik bilan boyidi. U birinchi ishini ota-bonbolari boshlagan oddiy naqshlarni kandakorlik qilishdan boshlab uni qabul qilgan shogirdlariga ham o'rgandi.Usto Abdusalom mis kandakorligini rivojlantirganligi uchun, yaxshi xizmatlari uchun orden va medallar bilan mukofotlaganlar. Hozirgi vaqtda u kishining ijodiy asari birinchi lalida "Ismoil samoniy" maqbarasi tasviri tushirilgan ishlarini kandakorlik muzeyida ko'rishingiz mumkin. Yana bir juda tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan ishlari bu "Hayvonot olami" deb ataladi. Usto Abdusalom bu asarlarni kenja qiziga ishlaganlar. Bu ish haqida alohida suhbat: kenja qizlari 5 yoshar juda qiziqchan bo'lgan. Usta ishlagan paytlarida qiziqqon qilib ishlashga halaqit qilar ekan. O'shanda usto deometri 60x60 bo'lgan mis la'lga barcha hayvonlarning shaklini shu la'lga tushurgan va shundan keyin u kishining qizlari shu la'lidagi rasmning tamoshasi bilan ovora bo'lib, boshqa otalariga halaqit bermaydigan ekanlar. Shu la'li hozitgacha qizlarining uylariga saqlanayapti.

Xorazm amaliy san'atining eng keng tarqalgan turlaridan biri misga naqsh o'yish kasbidir. Mis o'ymakorligi – metallardan yasalgan badiiy buyumlarga o'yib yoki bo'rtiq qilib naqsh ishlash tushuniladi. Mis o'ymakorligida yetuk ustalar Xiva, Xonqa, Urganch, Xazorasp tumanlarida ijod qilib, Xorazmda mis o'ymakorlik maktabini bunyod qilishgan.

Xorazmning XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi mis o'ymakorlik buyumlari ko'p jihatdan o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qolganki, ular boshqa viloyatlardagi buyumlardan farq qiladi. Xorazmda qo'l yuvdirish uchun qo'llaniladigan

«Qumfon» idishi mutlaqo original shaklga ega bo'lib, dastsiz, qorni noksimon va baland ingichka bo'yinlidir.

Xiva hunarmandchiligida naqqosh ustalar alohida o'rin egallaydilar, ular ustalar uchun turli xil naqshlarni eskizini tayyorlab berishgan. Xivalik mashxur naqqoshlar Matkarim Negmatullaev, Eshmuhammad Xudayberganov, Xudaybergan devon chizgan naqshlardan shu davrda barcha badiy bezak san'at ustalari



foydalanganlar. XX asrning 70 yillariga kelib Xivada badiiy ishlab chiqarish maktabi tashkil etildi va bu yerda asrlar davomida rivojlanib yuksak darajaga ko'tarilgan hunarmandchilikni davom qildirish, yosh avlodni shu hunarlarga jalb qilish maqsadida ilk qadam bo'ldi. Xorazm mis o'ymakorligi san'ati oddiy bo'lsada, ta'sirchanligi, zaminining chuqurligi, naqshlarning o'ynoqligi bilan kishini hayratga soladi. Ustalar san'at asarlarini «islimiy», «murakkab islimiy», «aylanma islimiy», «girix» va boshqa naqshlar bilan bezaganlar. Xorazm mis o'ymakorligi maktabining vakillaridan Muhammad Pano, X.Matchanov, Sobirjon, Yusuf va Matpano Xudayberganovlar, Said Niyozov, B.Yokubov, O.Madraximov

shular jumlasidandir.



Xorazm Amaliy san'atining muzey ekspozitsiyasida namoyishga qo'yilgan mis o'ymakorligi san'atining durdonalarini ko'rgan har bir inson dunyoning go'zalligini xis etishiga va uning rang barangligini saqlashga intilishi, undan unutilmas bahra olishi shubhasizdir. Bu erda XIX

– XX asr boshlarida tayyorlangan qumg'on, tung, samovar, patnis, sulopcha va jom idishlar namoyishga qo'yilgan. Ularda naqshlar bilan birga arab alifbosida yozilgan Qur'on suralaridan oyatlar, tayyorlangan sanasi, ishlagan ustozning nomi bitilgan.

XX asrning 20-30 yillarida Buxorolik kandakorlar naqshlar yangi syujet voqea tasvirini olib kirganlar. Ular madaniy yodgorliklar odam va jonivorlar shaklini idish va la'liga muxrlydilar. Bu yirik kandakorlik markazi uchun bu yerda o'rta osiyodagi turli tumanlarda bilishlarini mustahkamlaganlari saviyalarni oshirgani ustalar kelib ketib turgan. XX asr boshlarida Buxoroda 400 zargar va 600 misgarlar ijod qilganlar. Olim Abdusalomov G'ulom Hasanov, Obloyor Yo'ldoshev, Mirsalixov va boshqalar shular jumlasidandir. Afsuski kandakorlik san'atidagi bunday taraqqiyot uzoq cho'zilmadi. Artellarni qayta tiklash bahonasi bilan kandakorlik buyumlari ishlab chiqarish butun Respublika miqqiyosida vaqtincha cheklanib qo'yildi. 1960 yillarga kelib O'zbekistonda misga naqsh berib ishlaydigan bironta korxon qolmadi. Kandakorlik san'ati qarovsiz qoldi.

Usto S. Hamidov deganimizda xalq hurmati, e'zozi, faxr g'ururi jamul-jam topgandek bo'ladi. Usto salimjon o'z kasbi kandakorligini ardoqlab, afsonadan o'ziga Mansur tabirni uyardi. Salimjon 8 yoshar bola



tengqurlarni tunidan erta ajrab chiqdi. Shuxchan o'yinlarni tark etdi. U otasining kichkina ustaxonasida uymalashib yurardi. Otasi shogirdlarining ishini diqqat bilan kuzatar edi va ular qatori o'g'li Saalimjonning ham ishiga e'tibor qilar edi. Salimjon birinchi mustaqil ishini 13 yoshida bajargan. Ushbu ishi "Yulduz" deb nomlangan edi. Oradan ko'p vaqt o'tdi. 1940 yilda uning otasi Abdusalom Hamidov vafot etdi.

Ota kasbini endi Salimjon davom ettirishi kerak edi. U urushdan so'ng o'z kasbiga mehr qo'ydiyu lekin, mis yoki birinchi toshi amri mahol edi. 1967 yil "Pravda" gazetasiga san'atshunoslik Olga Kavalevna Sakolovaning "Xalq san'ati barhayot" maqolasini o'qib ustoning alami tag'in oshdi. Buxoroda yagona kandakor usta Salimjon Hamidov buxoro maktabini kosibchilik uslubida

rivojlantirdi. Usta Salimjon Xamidovning bevosita ishtiroki bilan 1968 yilda respublikada birinchi Buxoro badiiy kandakorlik maktabi ochildi. Usto Salimjon u tashlandiq do'konni u yer bu yerini keltirib ustaxonaga aylantirdi. yosh maktab o'quvchilaridan atrofiga to'plab shogirt saqladi. San'atshunoslik maxalliy tashkilotlar yordamida qisqa fursatda kandakorlikning eski shuhratini qayta tiklashga tushdilar. Ularning yordamlari bilan usta Salimjon 10 nafar 13-14 yoshga kirgan o'g'il qizlarni shogirdlikka oldilar. Shogirdlar har kuni darsdan keyin soat 14-00 dan boshlab ustodan kandakorlik si atvorlarini o'rgana boshladilar. 1967 yilda Ustaning 10 ta shogirdi bo'lgan bo'lsa, keyinchalik usta Salimjonning shogirdlari 50 kishidan oshib ketdi. Ular yaxshi hunarlari san'atlari bilan boshqalarga o'rnak bo'lgan shogirdlardan Murtazo G'ulomov, Ahmad Hamroyev, Dilbar Halimova B. Xalimov, Anvar Hamidov, Mahmud G'ulomov, va yana bir qancha shogirdlakim ular hozigacha usta Salomjonning ishini davom ettirib kelyaptilar.

Afsuski ko'p vaqt o'tmay usta S.Hamidov 53 yoshlarida uzoq kasallikdan so'ng 13.08.73y vafot qildilar. Usto o'z kasbi uchun kurashadigan yangiliklar izlaydigan usto edilar. Ustoning vafotlaridan so'ng kandakorlik ishlarini u kishining shogirdlari davom ettirdi. Usto M. G'ulomov shogirdlarga rahbarlik qilishni boshladilar U vazifasiga lali berish, qalamlarni tezlash eskizlarni tanlash ish jarayoni kuzatish va kamchiliklarni tushuntirib berar edilar. Yuqorida nomlari tilga olingan ustolari davlat tomonidan qo'yilgan plandan tashqari o'z ijodlarini davom ettirib barcha ko'rgazmalarga qatnashib yaxshi sovrinli joylargaega bo'lib yurar edilar. Usta M.G'ulomov 1942 yilda tug'ildi. 1968 yildan boshlab S.Hamidovga shogird bo'lib kandakorlik san'atini puxta egallagan usto Har doim ustoz yosh bo'lib u kishiga yaqinda yordamlashib kelgan. Hozirgi kunda o'g'li Shavkat G'ulomov ota kasbini davom ettirib kelmoqda. Usto Anvar Hamidov-ustoz S.Hamidovningjiyani uni ish texnikasi nihoyatda chuqur pardoqlash texnikasi rang barang ishlash uslubi bobosi usta Abdusalomga o'zshab ketadi. Naqshlar bejirim aniq semmietriya qonuniga rioya qiladi. U ko'pgina viloyat respublika kurgazmalarga qatnashib kelyapti U 1993 yildan beri badiiy akademiya

a'zosi o'g'li Alisher bilan birgalikda devonbibi madrasasida ustaxona ochib ijod qilib kelyapti. Usto Rahmatillo Qulliyev 1959 y Buxoroda tug'ilgan. Hozirgi vaqtda ukasi hikmat va o'g'li bilan birgalikda gavkushon madrasasida ijod qilyapti. Usto tohir qosimov 1958 yilda tug'ilgan 1980 yil BuxDU BGF fakultetini bitirgan. O'zb. Komsomoli lauriati."Oltin qo'l" medalining sohibi O'zb. Badiiy akademiasining a'zosi. Hozirgi vaqtda o'g'illari Jamshid va Jamol bilan birgalikda Devonbegi madrasasida o'zlarining ishlarini davom ettirib kelyaptilar. U yaratgan kandakorlik asarlari botik uslubda gul naqshlari eskizlarni o'zi mustaqil o'zlari mustaqil ijod qiladi, shogirdlarga mehribon, bilimni ulardan ayamaydi. Boshqa yosh shogirdlarga naqshlar chizish eskiz tayyorlash o'z kuchini ayamay sarflaydi.

Usto Baxtiyor Halimov 1954 yil tug'ilgan. 15 yoshdan beri hayotini kandakorlik san'atiga bag'ishlab keliyapti. U viloyat respublika va chet el ko'rgazmalariga qatnashib kelmoqda. O'gli Muhammad Hamroyev f o'z otasi bilan birgalikda ijod qilmoqda. Usto Rahmat Fatulloyev Buxoro davlat universitetining badiiy grafika fakultetini bitirgan. Badiiy akademiya a'zosi ko'pgina respublika va chet el ko'rgazmalariga qatnashib kelmoqda. O'zining kandakorlik maktabini ochgan va bir necha shogirdlarga rahbarlik qilib kelmoqda.

Usto Umid Aliyev 1955 yilda tug'ilgan Badiiy akademiya a'zosi, yetuk kandakor. U yaratgan asrlar o'zining serjilosi bilan nafis ko'rkamligi bilan kishini maftun etadi. Usto Mirjon Ahmedov 1956 yilda tug'ilgan. Badiiy akademiya a'zosi Samarqanddagi "Usto" uyushmasi bilan birgalikda ijod qilib turadi. u o'zining ko'p qirrali ijodi bilan boshqa ustalardan farq qiladi ko'pincha mis lalilarni o'z misgarlik yo'li bilan taxlab o'zi va o'g'li Alisher bilan kandakorlik qiladi.

Bu maktabda iste'dodli yoshlar ta'lim olib, buxorolik buyuk ustalar an'analarini davom ettirishdi. Bugungi kunda buxoro maktabiga mansub yetakchi ustalar Sodiq Muhsinov, Nikolay Anisimov, Toxir Qosimov, Rahmat Fatullayev, Shavkat G`ulomov, Jamshid Qosimov, Islom Muhsinov, Bobir Halimov kandakorlik ustalari mis buyumlar yasashni davom ettirishmoqda. Ular o'z asarlarida islamiy naqshlardan tashqari, Buxoro, Samarqand, Xiva me'moriy yodgorlik-

larini tasvirlamoqdalar. Bu ustalar kandakorlikni uslubiy jixatdan takomillashtirgan xolda, uning an'anaviy xususiyatini saqlab qolishmoqda. Nodir dekorativ buyumlar — patnis, taqsimcha, choynaq ko'za, piyola va x.k.larda ham asosan yassi bo`rtma naqshiinkor bezakdan foydalanilmoqda. Keksa misgar ustalar boshlagan ish ravnaq topmoqda, xozirgi ustalar qadimgi ustalarning an'analarini muvaffaqiyat bilan rivojlantirishmoqda.

## 1.4. Usto-shogird an`analarining milliy tarbiyadagi ahamiyati va uzviyligi

Oltin topmaguncha o`rgangil hunar,  
Hunarning oldida xasdir oltin-zar.

*Abdurahmon Jomiy*

Milliy hunarmandchilikni rivojlantirish va uni yo`q bo`lib ketgan turlarini qaytadan tiklash, rivojlantirish, davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlanishi, hunarmandchilik maktablarini ochib yoshlarga hunar o`rgatilishi, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, bularning barcha - barchasi milliy o`zligimizni anglashga bo`lgan intilish, ma`naviyatimiz poydevorining mustahkam ekanligidan dalolat beradi.

Qadimda ajdodlarimiz usto-shogird an`analari asosida yoshlarga hunar o`rgatish bo`yicha boy tajribaga ega bo`lganlar. Lekin biz, keyingi vaqtlarda ajdodlarimizning boy merosidan, hamda tajribalaridan to`liq foydalana olmayapmiz. Shulardan biri usto-shogird an`analarini chuqur o`rganmaganligimizdir. Ajdodlarimiz tajribalari yoritilgan adabiyotlarni ham yetarli deb bo`lmaydi. Bundan tashqari ajdodlarimiz boy tajribalarini hozirda hunar o`rgatilayotgan joylarda, chunonchi oliy o`quv yurtlarida, o`rta maxsus kasb-hunar ta`limi muassasalarida, shaxsiy ustaxonalarda usto-shogird odobi to`liq o`rgatilmashligi, o`quvchi-yoshlarning axloq-odobiga va bilim darajasiga, umuman, ularning ma`naviyatini shakllanishiga salbiy ta`sir etayotganligining guvohi bo`lamiz<sup>11</sup>. Mustaqillik yillarida hunarmandchilikda usto-shogird maktablari va munosabatlarini izga solish bo`yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. O`zbek xalqi hunarmandchilikning turli tarmoqlari bilan azaldan shug`ullanib kelgan va an`ana sifatida bugungi kungacha ham davom ettirib kelmoqda. Hunarmandchilikning ba`zi tarmoqlari unut bo`lmasdan, milliylikni,

---

<sup>11</sup>Гончарова Р.А. Бухоро зардўзлик мактаби: (Албом). Т., Ўзбекистон КИМПНИНГ нашриёти. 1986. Б. 12.



qadriyatlarining yetib kelishida usto-shogird an`anasining uzviyligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo`li gul usta o`z hunarining sir-asrorlarini o`rgatish uchun o`z farzandi yoki qarindoshini yoshligidan 7-8 yoshidan shogirdlikka olgan. Shogird usta yonida kecha-kunduz 7-12 yil davomida yurib, hunar o`rgangan<sup>12</sup>. Usta shu hunarni o`rganishga juda ishtiyoqmand bo`lgan boshqa bolalarni shogirdlikka sinov asosida qabul qilgan. Ya`ni sinov davri (uch yoki to`rt oy) mobaynida usta shogirdini ta`lim-tarbiyasiga, qo`li egri emasligiga, hunarni matonat bilan o`rganishiga, sabri yetishligiga, hunarni o`rganishga ishtiyoqi borligiga ishonchi komil bo`lgach, o`z hunarini shogirdiga o`rgatishga jazm qilgan. Usta shogirdiga kasbini tekinga o`rgatgan. Ustalar shogirdlarga nisbatan qattiqqo`l, talabchan bo`lib, risolalar ya`ni “shogirdlar uchun maxsus odob talablarini ishlab chiqqanlar”<sup>13</sup>. Risola kasb-hunarga oid nizom chaqiriqlari (qonun-qoidalar)ni o`z ichiga olgan<sup>14</sup>. Usta shogirdiga hunar o`rgatish jarayonida o`zi ishlab chiqqan maxsus odob-axloq normalari asosida shogirdini ma`naviy jihatdan ham tarbiyalab borgan. Masalan, ular shogirdidan pokizalikni, rostgo`ylikni, ish vaqtida chalg`imaslikni, egri va noma`qul ishlarga yaqin yo`lamaslikni, halollikni, ustoz ruxsatisiz biror ishga qo`l urmaslikni qat`iy talab qilganlar<sup>15</sup>.

Darhaqiqat, hunar egallagan, mehnatdan qochmaydigan inson jamiyatda o`zining qadr-qimmatini topadi. “Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e`tiqodli farzand, - deydi I.Karimov - nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir”<sup>16</sup>.

Usto-shogird an`analarining jamiyat hayotida chuqur ildiz otishi ham ma`lum bir sababalar natijasi deb hisoblash mumkin. Hunarmandchilikda uzoq davr mobaynida yakka tartibdagi ya`ni individual ishlab chiqarish, ishlab chiqarishning asosini tashkil qilib kelgan. XIV –XV asrlardan sex ishlab

---

<sup>12</sup> Bulatov S.S. va boshqalar. Naqqoshlik. T. “Iqtisod-moliya”. 2010. B. 60.

<sup>13</sup> Булатов С., Мухторов А. Ганчкорлик санъати. – Тошкент: Мусиқа. 2006. – Б.11.

<sup>14</sup> Нозилов Д.А. Ўрта Осиё дизайни тарихидан. – Тошкент: Ўзбекистон. 1998. –Б. 7.

<sup>15</sup> Булатов С., Мухторов А. Ганчкорлик санъати. – Тошкент: Мусиқа. 2006. – 11.Б.

<sup>16</sup> Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т., “Маънавият”. 2008. Б. 56.

chiqarishining O`rta Osiyoda keng tarqalishi kuzatiladi. Buni Xorazm misolida ko`rish mumkin. Mizdahkon yodgorligidagi qazish ishlari jarayonida yakka hunarmandlar ustaxonalari bilan bir qatorda, sex shaklida faoliyat ko`rsatgan ustaxonalar ham topib o`rganilgan. Yodgorlikdagi uchta xonadan kulollarning yakka hunarmandga tegishli qo`sh xumdonlari qayd qilingan<sup>17</sup>. Mizdahkondagi tadqiqotlar hunarmandlar birikib, sex shaklida faoliyat olib borgan ustaxonalarning ham topib o`rganilishiga olib keldi.

Tadqiqotchi M.T.To`rabekovning aniqlashicha, bu ixtisoslashgan sexda bosh ustadan tashqari, 7 ta kulol, 7 ta shogird, 4 ta yordamchi ishchilar hunarmandchilik faoliyati bilan band bo`lgan<sup>18</sup>. Sex hunarmandchiligining rivoji usto-shogird munosabatlarini ma`lum bir mezonlarga bo`ysundirishni talab etgan. Bu mezonlar bugungi kunda ham usto-shogird munosabatlarining asosi hisoblanadi. Xalqimizda usta o`zidan keyin bilimdon, iste`dodli shogird qoldirmasa, uning hayoti, umri bekor o`tdi deyiladi. Usta sahiy, odobli, mehr-shafqatli, marhamatli, ochiq yuzli, shirin muomalali, sabrli, talabchan, qanoatli, to`g`ri so`zli bo`lgan. Usta o`z hunariga qiziqishi, o`z hunarini yoshlarga sidqidildan o`rgatishi, o`z hunariga yangiliklar kiritishi, shu hunari bo`yicha o`zidan keyin yaxshi sodiq shogirdlar qoldirishi kerak. Ustaning eng yaxshi kasbiy fazilatlaridan biri shogirdlar tayyorlashdir. Usta shogirdiga qiyinchiliklar bilan san`at sirlarini o`rgatdimi, san`at olamiga olib kirdimi, uni shogird chuqur hurmat qilmog`i ham farz, ham shartdir. Shogird ustaning munosib davomchisi bo`lishi uchun uning dunyoqarashi, ruhiy olami vatanparvarlik, o`rtoqlik, do`stlik, hamkorlik, hamjihatlilik, sadoqat, mehr-muruvvat, kasb tanlash imkoniyatini, milliy iftixor, ozodalik, pokizalik, samimiylik, ziyraklik, tashabbuskorlik, insoflilik, rostgo`ylik, or-nomuslilik, intizomlilik, munofiq va riyokor bo`lmaslik, adovat, hasad, g`iybat, ig`vo qilmaslik, yolg`on so`zlamaslik, ota-onani xurmat

---

<sup>17</sup> Туребеков М., Бижанов Е. Раскопки золотоордынского квартала Миздахкана в 1985 г.// Вопросы истории, археологии и этнографии Каракалпакстана.– Нукус,1993. Вып.П. – С.20-21; Кдырниязов М.-Ш., Кдырниязов А. Раскопки средневековых жилищ в южной части Миздахкана// АИУ-2002. – Ташкент, 2003. Вып.3. – С.89-90.

<sup>18</sup> Туребеков М.Т. Раскопки жилого массива гончаров средневекового Миздахкана ... – С.78-79.

qilish kabi hislatlar bilan yo`g`rilgan bo`lishi darkor.

Shogirdning ustozidagi burch va vazifalari.

1. Ustozga itoatli bo`lish.
2. Ustoz an`analarini davomchisi bo`lish.
3. Ustoz an`analariga sadoqatli bo`lish.
4. Ustozning pand-nasihatlariga amal qilish.
5. Ustozga taqlid qilish.
6. Sabr-toqatli bo`lish.
7. Irodali bo`lish.
8. Ustozni yuzini yerga qaratmaslik, aksincha uning obro`sin ko`tarish.
9. Ustozni sha`niga iliq so`zlar olib kelishi.
10. Ustozning dushmani bilan do`st tutinmaslik.
11. Ustozning oila a`zolarini xurmat qilish.
12. Ustozning qarindosh urug`larini xurmat qilish.
13. Ustozning ruxsatisiz hech narsaga qo`l tekkizmaslik.
14. Birovning narsasiga ko`z olaytirmaslik.
15. Ustoziga cheksiz xurmat bilan munosabatda bo`lish.<sup>19</sup>

Ushbu mezonlarga amal qilgan holda ta`lim muddatini o`tagan shogird ustozidan oq fотиha olgan.

O`zbekiston Respublikasi mustaqilligi amaliy san`atning barcha shakllarini rivojiga mustahkam zamin yaratdi. Shuningdek, O`zbekiston hududida qadimdan shakllangan, jahonga mashhur nafis san`at maktablarining noyob an`analarini avaylab asrash, o`rganish, boyitib borish, milliy tasviriy, amaliy, miniatyura san`atining nodir durdonalarini dunyoga olib chiqish va targ`ib qilish bugungi kunning asosiy masalasiga aylandi. Xalq amaliy san`atini nafaqat qayta tiklash, balki zamonaviylikni uyg`unlashtirgan holda yosh avlodning ma`naviyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Prezidentimiz ta`kidlaganidek, «O`tmishdagi allomalarimizning bebaho merosi qanchadan-qancha avlodlarning

---

<sup>19</sup>Булатов С., Мухторов А. Ганчкорлик санъати. – Тошкент: Мусиқа. 2006/2006. В. 58.

ma`naviy-ruhiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi va u hamon ta`sir ko`rsatmoqda. Ularning boy ilmiy merosini har tomonlama chuqur o`rganish va tegishli xulosalar chiqarib, zamonaviy bilimlar, bugungi hayot talablaridan kelib chiqadigan tajribalar bilan boyitish zarur va bu ulug` merosni avvalo o`zimiz uchun, kelajak avlodlar tarbiyasi uchun beqiyos ma`naviy oziq deb bilmog`imiz darkor»<sup>20</sup>.

Shu o`rinda, bola, deb hisoblaydi Ushinskiy, ilk yoshlik chog`laridayoq xalq madaniyati elementlarini o`zlashtira boshlaydi, bularni avvalo ona tilini bilish yo`li bilan o`rganadi: «Bola o`z tevarak-atrofidagi kishilarning ma`naviy hayotiga faqat ona tili vositasida kirib boradi va aksincha bolaning tevarak atrofidagi olam faqat o`sha muhit ona tili vositasida unda o`zining ma`naviy tomoni bilan aks etadi»<sup>21</sup>. Shuning uchun ham, ajdodlarimiz azaldan ustoz-shogird anánalariga alohida e`tibor berganlar.

Usto-shogird análari uzoq o`tmishga ega. Hunarmandchilikning tarkibiy qismi hisoblangan ustoz-shogird marosim va an`analari ma`lum sabablar asosida paydo bo`lgan va avloddan-avlodga o`tib kelgan. Har bir hunarning o`z piri bo`lgan. Pir (forscha-keksa, qari) so`fiylik an`anasida tariqatlarning oliy rahnamosi yoki obro`li rahnomalar, shuningdek, har bir murid o`z murshidini ham pir deb atagan. Aholi orasida pir tushunchasi avliyo ma`nosida ishlatilgan.<sup>22</sup> Ya`ni pirga ma`lum bir hunarning asoschisi sifatida qaralgan. Ya`ni:

1. Tikuvchi zardo`z va boshqalarning piri Bobo Zarado`z bo`lgan.
2. To`quvchilar piri Idris payg`ambar;
3. Yog`och o`ymakorligi va qayiqchilik piri payg`ambar Nuh hisoblangan.<sup>23</sup>

Shunday hunarlar bo`lganki, ularning bir qancha pirlari bo`lgan. Chunonchi: duradgorlarning yetti yiri bo`lgan:

Avval - ustoz Jamoliddin , ikkinchi - ustoz Shamsiddin, uchinchi - ustoz

---

<sup>20</sup>Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т., «Ўзбекистон». 1996. Б.40- 41.


<sup>21</sup>Ушинский. К. Д. Танланган педагогик асарлар. – Т.: Ўқувпедавнашр, 1959. – 5 – 22 б.

<sup>22</sup>Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Давлат миллий нашриёти. 2004. Ж.7 Б.73.// Учинчи – Устоз илм; Тўртинчи – при Шаърият. Фан ва турмуш. 1996. №1. Б.20.

<sup>23</sup>Bulatov S.S. va boshqalar. Naqqoshlik. Т. «Iqtisod-moliya». 2010. В. 69.

Nizomiddin, to`rtinchi - ustoz Shahobiddin, beshinchi - ustoz Imomuddin oltinchi – ustoz Kamoliddin, yettinchi - ustoz Abdulloh Amaniyy.<sup>24</sup>

Usto-shogird anánalari bir-qancha bosqichni o`z ichiga oladi, ya`ni bu munosabatlar quyidagi tartibda bo`lgan:



Rivoyatlarga ko`ra kulolchilik hunari, dastlab, Odam Atodan Said Amir Kulolga, undan esa Bahovuddin Naqshbandiy orqali barcha kulollarga o`tgan. Bahovuddin Naqshbandiy, ayniqsa, naqshlangan buyumlar ishlab chiqaruvchi ustalar tomonidan e`zozlangan. Ular buyumlarga naqsh solish Bahovuddindan qolganligi tufayli uni naqshbandiy, ya`ni tojikcha naqsh rasm, bezak va band - boshomoq (chizmoq) ma`nosidan kelib chiqqan holda pir sifatida bilganlar.<sup>25</sup>

Ustaxona «pok» joy deb hisoblangan, uni «pirxona» deb atashgan. Ustaxonaga tahoratsiz kirish, tuflash, asbob yoki uskunani tashlab yuborish yoki otib yuborish, so`kinish nojo`ya harakatlar qilish va boshqalar pirga nisbatan xurmatsizlik, e`tiborsizlik deb hisoblaganlar.<sup>26</sup>

Shogird hunar turidan kelib chiqib bir necha yil ustadan hunar sirlarini o`rgangan. Aytaylik, usta o`ziga shogirdlikka o`z bolasini yoki qarindoshlaridan olgan. Shogirdlikka 7-8 yoshdan olingan, o`qish o`rganish 7-12 yillar atrofida bo`lgan. Zardo`zlik kasbini o`rganish uchun 10-12, ayrim hollardagina undan, kattaroq yoshdagi bolalarni jalb etganlar. Bolani usta oldiga olib borish o`ziga yarasha tantana bo`lgan. Bolaning ota-onasi va qarindosh – urug`lari bo`g`irsoq va xolvantar qilib, ustaning huzuriga va “bolaning go`shti sizniki, suyagi bizniki”,

<sup>24</sup>Bulatov S.S. va boshqalar. Naqqoshlik. T. “Iqtisod-moliya”. 2010. B. 69.

<sup>25</sup>Zoxidova D., Hunarmandchilikka kirish. T.: UMKXTRI, 2001 - 12-B.

<sup>26</sup> Пещерова У.М. Ремесленные организации Средней Азии в конце XIX - начале XX вв. /Международный конгресс востоковедов / 1960. 1-6.

Сухарева О.А. Позднефеодальный город Бухара. Т. : Изд. АН РУз, 1962. - 194-6.

qabilida gaplar bilan uning ixtiyoriga topshirganlar<sup>27</sup>. Ustozi shogirdlari bilan kunduz kuni ishlab kechqurun esa ustoz rahbarligida savod chiqarilgan. Shogird san`at sirlarini puxta egallagandan so`ngroq fотиha berilgan. Marosimda ustoziga shogird bosh-oyoq sarpo, tugun in`om etgan.

Agar ustalarga ma`qul tushsa, unda shogirdga “usta” degan unvoni berilgan. Shundan so`ng yosh ustaga boshqa shaharlarga borib ishlashga ruxsat berilgan yoki ba`zi yosh ustalar ustaga “xalifa” bo`lib, uning boshchiligida ishlab yurgan. Oqsoqolni tayinlashda shaharlardagi eng katta tajribali ustalardan birini saylaganlar.<sup>28</sup>

Amaliy san`at so`nggi 80-90 yillar ichida quyidagi asosiy yo`nalishlarda rivojlandi: 20 dan ortiq xalq hunarmandchiligini o`z ichiga olgan xalq amaliy san`ati yengil (chinni buyumlar, badiiy matolar) va mahalliy (sopol, yog`och buyumlar, gilamchilik, kashtachilik, zardo`zlik va boshqalar) sanoatni o`z ichiga olgan badiiy sanoat; ko`rgazma, interyer va manzarali kulollik buyumlari, gabelen, shisha, chinni va zargarlik san`atida an`anaviy bo`lmagan buyumlar yaratuvchi rassomlik ijodi bilan bog`liq malakali yakka tartibdagi mualliflik bezak san`atiga aylandi<sup>29</sup>. Bugun yurtimizda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`atni qo`llab-quvvatlash, yosh avlodga nafaqat ta`lim berish balki kasb-hunarga ega bo`lishlarini ta`minlash uchun bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, «Xalq badiiy hunarmandchiliklarini va amaliy san`atini yanada rivojlantirishni davlat yo`li bilan qo`llab-quvvatlash chora tadbirlari to`g`risida»gi (1997-yil. 31-mart) Qarori milliy madaniyatni rivojlantirishda xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san`atning ahamiyatini oshirish, yuksak badiiy buyumlarni tayyorlash asriy an`analarini va o`ziga xos turlarini qayta tiklash hamda xalq hunarmandlariga davlat tomonidan madad ko`rsatishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Umuman olganda, XXI asr globallashtirish davrida yoshlarning mustaqil ravishda hunar bilan shug`ullanishida, odob-axloq mezoniga rioya etishida, yosh

---

<sup>27</sup> Булатов С.С., Мухторов А. Ганчкорлик санъати. Т.: 2006. Б. 49.

<sup>28</sup> Ўша асар. Б.47-48.

<sup>29</sup> Bulatov S.S. va boshqalar. Naqqoshlik. Т. “Iqtisod-moliya”. 2010. Б. 37.

avlodni hunarmandchilik kasbiga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashda ustoshogird anʼanasi va u bilan bogʻliq boʻlgan marosimlarning ahamiyati juda kattadir. Zero, hunarmandchilikda ustoshogird marosimlari qadimiy qadriyat hisoblanadi. Hozirgi vaqtda respublikamizda xalq ustalariga katta ahamiyat berilayapti, anaʼna va qadriyatlarni asrab avaylash, hunarmandlarga yordam koʻrsatish kabi ishlar davlat siyosati darajasiga koʻtarildi. Hunarmandchilik anʼanalarini tiklash qonuniy jarayon boʻlib, u milliy madaniyatni saqlab qolishga intilish bilan izohlanadi. Keyingi yillarda Oʻzbekiston hukumati xalq kasb-hunarlarini tiklashga qaratilgan bir qator qarorlar chiqardi, “Oʻzbekiston xalq ustasi” unvoni joriy etildi. Bu ulugʻ unvonga hunarmandlardan Hayitmat Bogʻibekov Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2001 yil 24-avgustdagi Farmoni bilan sazovor boʻldi. Bundan tashqari mohir usta 1999 yildan Oʻzbekiston Respublikasi Badiiy Akademiyasining aʼzosi. 2005 yilda Respublika “Tashabbus” koʻrik tanlovining “Eng yaxshi hunarmand” nominatsiyasida faxrli 2oʻrinni oldi. 2010 yilda “El-yurt hurmati” ordeni bilan taqdirlandi. 2011 yildan “Hunarmand uyushmasi” Xiva tuman boʻlimi faxriy aʼzosi. Xalqaro koʻrgazmalar sovrini va YUNESKOning kafolat yorligʻini olgan<sup>30</sup>. Namanganlik yogʻoch oʻymakor ustasi Maxmudjon Joʻrayev va amaliy sanʼat ustasi Asqarbek Akbarov Oʻzbekiston Respublikasi “Xalq ustasi” unvoni bilan taqdirlangan boʻlsa, nogironligiga qaramay zardoʻzlik hunarini eʼzozlab kelayotgan Zebo Azimboyeva “Jasorat”, atlaschi Latifjon Ahmadjonov va chinnisoz Neʼmatjon Soliyev “Shuhrat” medali sohibiga aylandilar<sup>31</sup>. Bugungi kunda usta Maxmud Joʻrayev yogʻoch oʻymakorligi ishlarini yoshlarga oʻrgatish borasida katta izlanishlarni olib bormoqda. Shogirdlarining soni 40 nafardan oshganligiga qaramay har biri bilan alohida-alohida shugʻillanishga ulgiradi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining sovrini uchun oʻtkaziladigan «Tashabbus» tanlovining doimiy ishtirokchisi. Bugun Oʻzbekiston zargarlik sanʼati taraqqiyotining anʼanaviy yoʻlida ishlayotgan ustalardan biri – Fasxiddin

---

<sup>30</sup>Allaquliyev D.S. Xiva mustaqillik yillarida//Oʻzbekiston arxitekturasi va qurilishi. T. 2008. № 4. B.34.

<sup>31</sup>[www.namangan.uz](http://www.namangan.uz)

Dadamuhammedovdir. Bugungi kunda F.Dadamuhammedov yaratgan asarlar O`zbekiston Davlat san`at muzeyi, O`zbekiston Amaliy san`at muzeyi, Germaniyadagi Linden hamda Sankt-Peterburgdagi Etnografiya muzeylarida o`z o`rnini topdi. Zargar usta 1998 yilda “O`zbekiston Respublikasi xalq ustasi” degan sharaflı unvonga birinchilar qatorida musharraf bo`ldi. 2011 yilda Temuriylar tarixi Davlat muzeyining taklifiga binoan Sankt-Peterburg shahridagi Ermitaj Davlat muzeyida saqlanayotgan Amir Temurning nabira kelini Gavharshodbeginning uzuk-muhri va Mironshoh Mirzoga tegishli uzuk-muhrning nusxasini yaratdi. Dadamuhammedovlar oilasi usto-shogirdlik an`analarini davom ettirib kelmoqda. Hozirgi kungacha usta o`g`illari bilan bir qatorda 50 dan ortiq yoshlarga zargarlik san`ati sirlarini o`rgatib kelmoqda<sup>32</sup>.

Hozirda asosiy maqsad unutilib ketgan hunarlarni tiklashdan iborat. Bundan tashqari turli xalqaro jamg`armalar va tashkilotlar ham bu sohada katta yordam ko`rsatmoqdalar. Xususan, 1995 yil BMT yordamida hunarmandchilik mahsulotlari yarmarkasi o`tkazildi. BMTning “Madaniy-ma`rifiy turizm va hunarlarni rivojlantirish” loyihasi hamda Kaunterpart Konsorsium xuzuridagi “Hunarmadlarga yordam” loyihasi bo`yicha katta ishlar amalga oshirildi. “Musavvir” ilmiy ishlab chiqarish markazi huzurida “Hunarmand” xalq ustalari uyushmasi tuzildi va barcha tumanlarda bo`limlari tashkil etildi.

Asrlar silsilasida o`z jozibasini yo`qotmagan xalq hunarmandchiligi va amaliy san`atni kelgusi avlodga yetkazishning yo`llaridan biri, aynan usto-shogird an`analarini saqlab qolish, usto-shogird maktablarining faoliyatini rivojlantirish hisoblanadi. O`zbek hunarmandchiligi yosh avlodni ham ma`nan tarbiyalashda, ham o`z kasbiga ya`ni hunariga ega bo`lgan yetuk mutaxassislarni yetkazib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## **II bob. Amaliy san`at darslarida o`quvchilarning amaliy bilimlarini**

---

<sup>32</sup><http://art-academy.uz>



## rivojlantirish

### 2.1. Mis kandakorlik san'atida ishlatiladigan xom ashyo va asbob-uskunalar

Kandakorlik fors tilidan olingan bo'lib, o'yish ishlari ya'ni mis buyumlarni o'yib bezash degan ma'noni anglatadi. Mis kandakorlikda turli xom-ashyolar va mis buyumlarni o'yish uchun har xil asbob-uskunalar kerak bo'ladi. Metaldan ishlangan buyumni o'yish uchun xom-ashyoning xususiyatlarini asbob-uskunalarini ishga tayyorlash va undan to'g'ri foydalana olish lozim bo'ladi.

**Xom-ashyolar.** Qadimda boy xonadonlarda uy ro'zg'orida buyumlar oltin va kumushdan ishlangan. Xozirgi zamon kandakorlik san'atida mis, latun, melxior, kumush kabi metallar ishlatiladi.

**Mis** - (lotincha "Cuprum" - Kipr oroli nomidan olingan). Mis – insonlarga qadimdan ma'lum bo'lib kelgan metallardan biri hisoblanadi. Mis va uning qotishmalari insonning moddiy madaniyatini o'stirishda katta ahamiyatga ega. Qadimda mis rudasi Kipr orolidan qazib olingan, shuning uchun uni orolining nomi bilan Cuprum deb atalgan.

Mis tarkibida ba'zan temir, kumush, kamdan-kam hollarda esa oltin bo'ladi. Mis hayotiy fiziologik jarayonda qatnashadigan muhim element. U yumshoq, chuziluvchan, bolg'alanuvchan kizg'ish metall. Mis 1083° temperaturada eriydi, 2567° haroratda qaynaydi. Mis issiqlik va elektr tokini juda yaxshi o'tkazadi, bu jihatdan faqat kumushdan keyingi o'rinda turadi. Mis kimyoviy jihatdan unchalik faol emas. Havoda oksidlanib qorayadi. Nam havoda gidroksikarbonat hosil bo'lgani uchun ko'karadi.

Uzoq o'tmishda xalqimiz misdan kundalik turmushida keng foydalanib kelgan. Misgarlar mis qozon, lagan, oftoba, choynak, jom, samovar va boshqa uy-ro'zg'or buyumlari yasashda foydalanadi. Qadimda misgarlar sof misni sovuqlayin ishlatganlar, shuning uchun ham mis buyumlar yumshoq hamda mo'rt bo'lgan. Keyinchalik qalay va mis qotishmasidan hosil qilingan bronzani ishlatganlar.

Hozirgi kunda misdan badiiy buyumlar tayyorlashda, elektr simlari, elektr asboblari va uskunalar ishlab chiqarishda, qotishmalar olishda, tuzlari esa pigmentlar va sun'iy ipak olishda, o'simlik zararkunandalariga karshi, teri (kun) sanoatida, mikroo'g'it sifatida va tibbiyotda ishlatiladi.

**Melxior** - (franstuz ixtirochilari Mayo va Shore nomidan) - misning nikel, temir va marganest bilan qotishmasi. Melxior yumshoq, chuziluvchan, bolg'alanuvchan oq metall. Melxior suvda tez zanglamaydi. U issiklik va elektrni yaxshi o'tkazadi. Melxiorni sovuklayin va issiqalayin mexanik ishlov berish oson. Melxiordan badiiy buyumlar, qoshiqlar, idish-tovoqlar, tibbiyot asbob-uskunolari, aniq mexanika detallari, tangalar, kondensator trubalari va boshqa narsalar tayyorlanadi.

**Kumush** - (lot. Argentum - oq kukun). Kumush qadimdan ma'lum bo'lib kelgan metallardan biri hisoblanadi. Er po'sti ning 1 -10 5% ini tashkil qiladi. Toza kumush chiroyli oq metall ko'rinishida bo'ladi. U 960,5° temperaturada eriydi, 2212° temperaturada qaynaydi. Kumush yumshoq, cho'ziluvchan bo'lganidan mexanik ishlov berish oson. Undan 0,00003 sm qalinlikdagi nafis varaqlar tayyorlash mumkin. Kumush issiklik va elektrni boshqa metallarga qaraganda yaxshi o'tkazadi hamda yorug'likni yaxshi qaytaradi. Kimyoviy jihatdan nafaol element. Odatdagi sharoitda suv va nam havo ta'siriga chidamli. Ko'pgina metallar bilan qotishmalar hosil qiladi. Kumush asosan, tarkibida kumush va qo'rg'oshin bor rudalardan ajratib olinadi. Kumush qotishmalari tanga pul, zargarlik va uy-ro'zg'or buyumlari, lab. idishlari ishlab chiqarishda, elektrotexnikada, tuzlari esa fotografiyada ishlatiladi. Kumush buyumlar tayyorlash uchun 875 probali kumush, ya'ni tarkibida 87,5% Kumush va 12,5% mis bo'lgan qotishma ishlatiladi.

**Asbob-uskunalar.** Har bir san'atning asbob-uskunolari bo'lgani kabi kandakorlik san'atida ham o'ziga xos asbob-uskunolari mavjud. Kandakorlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar 2 qismga bo'lib bo'linadi. Asosiy va qo'shimcha asbob-uskunalar.

#### **Asosiy asbob-uskunalar:**

**Dastgoh** (kanifolli qolib), bolg'acha, po'lat qalamlar, temir pargor (shtangenstirkul), charx tosh kiradi.

Dastgoh (kanifolli qolib) - bu tekis yuzali buyumlarni, ya'ni, lali, patnis va shunga o'xshash buyumlarni mahkamlab ishlash uchun mo'ljallangan uskuna. Dastgoh 3-qismdan iborat bo'lib, tak qismi yog'ochdan, atrofi yuqpa temirdan, ichiga esa munga o'xshash kanifoldan tashkil topgan. Dastgohlar aylana, to'rtburchak, oltiburchak, sakkizburchak kabi shakllari mavjud. Ishning hajmiga qarab, dastgoxlar katta, o'rta va kichik o'lchamlarda bo'ladi.



**Bolg'acha.** Kandakorlikda ishlatiladigan bolg'achalarning og'irligi 100-125 gr atrofida bo'ladi. Bolg'achalar agar belgilangan og'irligidan ko'p yoki kam bo'lsa ish sifatsiz chiqadi. Bolg'acha 2-qismdan dastasi yog'ochdan, temirdan tashkil topgan bo'ladi.



**Po'lat qalamlar.** Po'lat qalamlar 2 xil bo'ladi;

O'tkir uchli po'lat qalam va yassi uchli po'lat qalam.

**O'tkir uchli po'lat qalam** mis buyum yuzasiga turli xil tasvir yoki naqsh chiziqlarini o'yishda ishlatiladi. Shuningdek naqshning zamini hamda naqsh elementlarini o'yma pardoqlashda foydalaniladi. Bu po'lat qalamning o'yuvchi qismi o'tkir uchli ko'rinishga ega bo'lib, mis buyumni



o'yganda o'zidan ingichka chiziq ya'ni iz qoldiradi. Bu qalam ba'zi adabiyotlarda, chekuv qalam va naqsh qalam deb ham yuritiladi.

**Yassi uchli po'lat qalam.** Bu po'lat qalamning o'yuvchi uchi yassi ko'rinishga ega bo'lib, o'zidan eni 3-5 mm, chuqurligi 0,3-0,8 mm li iz qoldiradi. Bu po'lat qalamni ba'zi adabiyotlarda ko'zo'yar qalam deb yuritilsa, Buxorolik ustalar, pam qalam ya'ni yassi qalam deb yuritadilar. Bu qalam nashqning



zaminini o'yish hamda naqsh elementlarini o'yma pardoqlashda ishlatiladi.

**Temir pargor (shtangentsirkul).** Bu asbob buyumga aylana shakllarini chizishda, o'lcham olishda hamda yuzani taqsimlashda ishlatiladi.

**Charx tosh.** Bu asbob po'lat qalam uchini charxlash uchun ishlatiladi.

Qo'shimcha asbob-uskunalarga;

Oddiy qalam, qog'oz, chizg'ich, o'chirg'ich, stirkul, siyohli yoki gelli ruchka, rangsiz ruchka, shaffof qog'oz, qora (kopirovka) qog'ozi va plastilin kiradi.

**Oddiy qalam va qog'ozdan** mis buyum uchun kompozitsiya eskizlari chizishda foydalaniladi.

**Chizg'ich.** O'lcham olish va to'g'ri chiziqlarni chizishda ishlatiladi.

**Cirkul.** Aylana shakldagi chiziqlarni chizish va o'lcham olishda ishlatiladi.

**Siyohli yoki gelli ruchka.** Shaffof qog'ozdagi oddiy qalamda chizilgan kompozitsiyani chizishda foydalaniladi.

**Rangsiz ruchka** - Shaffof qog'ozdagi kompozitsiya kontur chiziqlar ustidan yurgizib chiqishda ishlatiladi.

**Shaffof qog'oz (kalka)** - franquzcha kalgus so'zidan olingan bo'lib, naqsh kompozitsiyalardan buyumlarga nusxa ko'chirishda ishlatiladi.

**Qora (kopirovka) qog'ozi** - naqsh kompozitsiyani buyumga ko'chirishda ishlatiladi.

**Plastilin** – shaffof qog'ozda (kalkada) bajarilgan kompozitsiyani buyum yuzasiga qistirib qo'yish uchun ishlatiladi.

## **2. 2. Kandakorlik san'atiga oid naqsh va tasvir turlari**

**Naqsh** - arabcha tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. Qush, hayvon, o'simlik, geometrik va boshqa elementlarni ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil qilingan bezakdir. U amaliy san'atning asosini tashkil etib ganchkorlik, kandakorlik, kashtado'zlikda, zardo'zlik, kulolchilik, zargarlik, gilam to'qish, to'qimachilik, inkurustastiya, panjaralar va hokazolarda har xil yo'llar bilan naqshlar ishlanadi. Masalan, o'yib, chizib, chok yordamida, zarb bilan, qadab va boshqa usullarda naqsh solinadi.

Amaliy san'atning ko'plab turlari kabi mis kandakorligida ham naqsh chizish muhim ahamiyatga ega. Naqsh chizishni yaxshi bilmasdan turib mis buyumni har qancha chiroyli qilib o'ymaylik bari - bir sizni etuk usta deb hech kim tan olmaydi. Naqshning o'zi nima? Uning qanday turlari bor? Bu naqshlarni qanday qoidalarga asoslanib qaysi tartibda o'rganish kerak? degan savol tug'iladi.

Naqshlar qaysi buyumni bezamasin, o'ziga xos uslub va texnologiya talab qiladi. Shuning uchun ham ota-bobolarimiz naqsh turlarini puxta o'rganganliklari uchun hayotdagi shodlikni ham, g'am kulfatni ham jonli chiziqlar, rang-barang naqshlar orqali bera olganlar. Albatta naqshlardagi mazmun va ma'noni uqiy olish uchun kishida badiiy ma'lumot, o'ziga xos bir san'at bo'lishi kerak.

Albatta bularni ishlashdan oldin naqsh chizish geometriyasini bilish zarur. Naqshlar mazmuniga ko'ra – islmiy (o'simliksimon) (8-rasm), geometrik (9-rasm), gulli girih, ramziy va boshqa turlarga bo'linadi.

**Islmiy naqsh** - tabiatdagi barg, band, daraxt, buta, g'uncha va boshqa narsalarni naqqosh tomonidan stillashtirib olingan shaklini ma'lum qonuniyatlar asosida takrorlanishidan hosil qilingan.

**Geometrik naqsh** - turlaridan biri girih bo'lib chigal, tugun degan ma'noni anglatadi. Handasaviy naqsh murakkab naqsh turi. U geometrik naqsh turlaridan biri bo'lib, to'rtburchak, uchburchak, aylana va yoylar hamda ko'pburchaklardan tashkil topadi. Tuzilishi jihatidan to'g'ri chiziq, egri- chiziq va aralash chiziqlardan tashkil topgan girihga bo'linadi. Geometrik naqsh uzluksiz rapportlardan tashkil topgan bo'lib, har bir rapport o'z tuzilishiga ega bo'ladi. Evropada arabeska deb

yuritiladi.

Geometrik naqsh elementlari to'rt qismdan - uchburchaklar, to'rtburchaklar, ko'pburchaklar va egri chiziqlardan tashkil topadi. Shu girih elementlari yordamida minglab naqshlar yasash mumkin. Girih ham naqsh turlari singari taqsim deb ataladigan juda oddiy elementdan tashkil topadi. Shu taqsimlarning takrorlanishidan tugal naqsh kompozistiyasi hosil kilinadi,

<b>№</b>	<b>Ramzlar</b>	<b>Ma'nosi</b>
1.	Chinnigul	Hayot ramzi
2.	Uzum	To'kin-sochinlik
3.	Kurtak	To'kinchilik, bahor, uyg'onish,
4.	Bog'lam	Baxt boylanishi
5.	Barg	Bahorgi uyg'onish
6.	Qalampir	Xar xil yomonliklardan va yomon ko'zlardan asrash
7.	Zirk guli (gulsafsar)	Osoyishtalik va uzoq umr
8.	Anor	Ezgulik, to'kinlilik
9.	Oygul	Baxt, iqbol, go'zallik
10.	Jingalak	To'kin-sochinlik, boylik
11.	Olma	Muhabbat
12.	Novda	Boylik, farovonlik
13.	Atirgul	Go'zallik ramzi
14.	Isirik,	Yomon kuzdan asrash
15.	Lola	Bahor belgisi
16.	Shobarg	Bahorgi uyg'onish ramzi

Geometrik naqsh kompozistiyalarini tuzishning o'ziga xos turli sirlari mavjud bo'lib, siz bilan girih naqsh tuzishning ba'zi bir tomonlarini o'rtoqlashmochimiz. Yangi girih kompozistiyalari tuzishning quyidagi sir-asrorlarini sanab o'tmochimiz.

Girih ma'lum mazmunga va xarakterga ega bo'ladi. Tabiatda har bir o'simlikning nomi bo'lganidek girihlarning ham o'ziga xos nomlari bilan yuritiladi. Agar girih 5 qirrali yulduzdan iborat bo'lsa, besh raxli girih deb yuritiladi. Xuddi shunday shu shaklning qirralari soniga qarab nomlanadi. Girih 5 va 6 qirrali yulduzsimon elementlardan iborat bo'lsa, uni besh-olti raxli girih deb ataladi. Agar 6 va 10 qirrali yulduzsimon elementlardan iborat bo'lsa, oltiyu-o'n raxli girih deb nomlanadi. Agar 5, 8 va 12 qirrali yulduzsimon elementlardan iborat bo'lsa, besh-sakkiz-o'n ikki raxli girihlar deb nomlanadi va hokazo.

<b>№</b>	<b>Ramzlar</b>	<b>Ma'nosi</b>
1.	To'g'ri chiziq	Hayotdagi to'g'ri yo'l, hayotning ravonligi
2.	To'lqin chiziq	Hayotning notekisligi, o'ning o'n beshi yorug', o'n beshi qorong'uligi
3.	Olti qirrali yulduz	Hayotning boshlanishi va oxiri
4.	Tik turgan holatdagi teng tomonli uchburchak	Hayotning boshlanishi
5.	Teskari turgan holatdagi teng tomonli uchburchak	Hayotning oxiri
6.	Teng yonli uchburchak	Yaxlit bo'lingan bo'lak, ayriliq, olam
7.	To'g'ri to'rtburchak	Dunyoning to'rt tomoni
8.	Romb	Ishonch, ayol, ya'ni ona er, serfarzandlik
9.	Aylana	Olam, mukammallik, baxt, hayot, quyosh, insonlarni yovuz niyatdan qaytarish ramzi, abadiylik, ya'ni olam doimiydir, lekin inson umri o'tkinchidir
10.	Besh qirrali yulduz	Hayotning keksaligi, besh kunlik dunyo. Islomning besh ustuni
11.	Yarim aylana	Baxt
12.	Kvadrat	Mukammallik, tenglik, go'zallik.



13.	Charxpalak	Omad, abadiy harakat, o'sish, qutarilish_
14.	Sakkiz qirrali yulduz	Mustahkamlik
15.	Beshburchak	Tabiat .

Kandakorlik san'atida badiiy buyumlarini bezashda quyidagi naqshlar va tasvirlar ishlatiladi.

Bular - oddiy naqsh namunalari, kompozition islmiy naqshlar, ramziy shakllar va naqshlar, tarixiy obidalar tasviri, hayvon va qushlar tasviri, arab alifbosida yozilgan unvonli yozuvlar, miniatyura tasvirlari hamda odam portreti tasvirlaridan iborat.

Oddiy naqsh namunalari – hoshiya naqsh turlariga kiradi. Buyumning atrofini to'ldirishda va bezashda foydalaniladi. Bunday naqsh turlarining ko'rinishlari xilma – xil bo'lib, ularning nomlanishi har bir maktabda har xil talaffuz etiladi. Buxoro kandakorlik maktabida uning zeb, zebish, mug'ja, zanjiri, bofta va hokazo turlari mavjud.

Kompozition naqshlar – ikkiga bo'linadi. Bular islmiy va murakkab (gulli girih) naqsh turlariga bo'linadi.

Islimiy - o'zbek kandakorligi maktablarining eng ko'p foydalaniladigan an'anaviy naqsh turi hisoblanadi. Islimiy naqshlarning ayni paytda qadimiy va zamonaviy ko'rinishlaridan keng foydalanib kelinmoqda. Bu naqsh turi tabiatdagi o'simliklar, gullar, daraxtlar, bog' – gulzorlarning stillashtirib olingan tasviri bo'lganligi sababli, har bir shahar o'zining atrof muhitiga, tabiatiga mos naqsh kompozistiya yaratadi.

Murakkab (gulli girih) - islmiy va geometrik naqshlardan tashkil topgan naqsh turi. Murakkab naqshlar amaliy san'atning naqqoshlik, ganch o'ymakorligi, yog'och o'ymakorligida juda keng qo'llaniladi. Biroq ko'pchilik kandakor ustalar ijodini kuzatganimizda, aynan kandakorlikda bu naqsh turidan juda kam foydalanilishi aniqlandi. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, geometrik naqshlardan deyarli foydalanilmaydi.

Ramziy shakllar - korxonalar, tashkilot belgilari, davlat ramzlari va belgilarini

kandakorlik buyumlarida tasvirlash tushuniladi. Bu ramziy shakllar yoki belgilarni atrofi islamiy naqshlar bilan bezatilsa, buyumning jozibadorligi yanada oshadi.

Ramziy naqshlar – tabiatdagi buyumlarni hamda qush va hayvon tasvirlarini soddalashtirish va uni islamiy naqshlar ko'rinishida tasvirlash tushuniladi.

Tarixiy obidalar tasviri. – O'zbekistonning qadimiy va tarixiy obidalarini mis buyumlariga tasvirlash tushuniladi. Tarixiy obidalar tasvirini buyumlarga tasvirlash uchun uning ko'rinishini kandakor ustalar tomonidan soddalashtirish va stillashtirish orqali amalga oshiriladi hamda qo'shimcha pardoz bezaklari bilan bezatiladi. Buni Buxorodagi "Poyi Kalon" majmuasi aks ettirilgan mis patnislarda uchratish mumkin.

Miniatyura tasviri – Miniatyura tasvirini mis buyumlarida moslashtirib tasvirlash va uni o'yish. Mis buyumlarini miniatyura tasvirlari bilan bezash, kandakorlik san'atining zamonaviy bezak turlaridan biri hisoblanadi.

Qush yoki hayvon tasvirlari. Mis buyumlarida qush yoki hayvon tasvirini tasvirlash, bezash. Qush yoki hayvon tasvirini mis buyumlarida tasvirlash, qadimiy bezak turlaridan biridir.

Unvonli yozuv. Arab alifbosidagi yozuvlarning kompozitsion ko'rinishi. Unvonli yozuvlardan foydalanib mis buyumlarini bezash, kandakorlik san'atining qadimiy bezak turlaridan hisoblanadi. Unvonli yozuv mis (lagan, patnis) buyumlarining markazida joylashgan bo'lsa, uning atrofini islamiy naqshlar bilan to'ldirish mumkin.

Odam portreti tasviri. Tarixiy shaxslarni yoki biror inson portretini mis buyumlarida tasvirlash. Odam portreti tasviri mis (lagan, patnis) buyumlarining markazida tasvirlanadi va uning atrofi islamiy naqshlar bilan bezatiladi.

### **2. 3. Mis kandakorlik uslubida bajarilgan buyum turlari**

Mis kandakorligi san`ati - o`zbek xalq amaliy bezak san`atining eng keng tarqalgan turlaridan biridir. Kandakorlik deganda metallardan yasalgan badiiy buyumlarga o`yib yoki bo`rtik qilib naqsh ishlash deganidir. Metallardan buyumlari yasash va bezashda buyum uch xil mutaxassisning qo`lidan o`tadi.

Qizil, sariq misdan, jezdan buyumlar va idishlarni yasash hamda shu buyumlarining ichki va tashqi yuzalarini qalaylash ishlarini *misgar* usta bajaradi.



Misgar usta

Mis buyum va idishlarning ayrim qismlarini masalan, dastasi, qopqog`i, qopqog`ining qubbasi, jo`mrak uchi (sonulasini), tumshug`i va boshqa qismlarini *rixtagar* usta tayyorlaydi.



Rixtagarlik jarayoni

Mis buyumlarni naqsh bezaklar bilan o`yib, chiroyli nafis naqshlar bilan bezash ishlarini *kandakor* usta bajaradi.



Kandakor usta

Qadimda bu uch ixtisoslik ya'ni misgarlik, rextagarlik va kandakorlik ishlarini bir mutaxassis bajargan. Asrlar o'tishi bilan inson ongi, tafakkuri barobarida har uchala hunar shakllandi va ular takominlashib alohida-alohida hunar sifatida ajralib chiqdi. Bu uchala hunar turi bir biri bilan uzviy bog'liq bo'lganligi uchun mis buyumlari va uning turlari haqida to'xtalib o'tamiz.

Metalldan ishlangan idishlarning umumiy shakli ma'lum shakl va siluetga ega. Suv solinadigan hamda choy damlab ichiladigan idishlarning shakli xilma-xil bo'ladi. Bu idishlar sharsimon yumaloq, agar yapaloqsimon bo'lsa satranji, qanoti nafari, shakli qovurg'ali, piltali, qirrali, raxli bo'lgan. Shunday idishlar borki, ularning qorni bir xil bo'lib, dastasi va tumshug'i bilan farq qilgan.

Yuz-qo'l yuvishda dastsho'y va oftobalar ishlatiladi. Suv keltirish uchun satil, suv olish uchun sarxum, non isitish uchun nondon va boshqa ro'zg'or buyumlar shaklining o'ziga xosligi har bir vohalarda o'ziga xos tuzilishga ega.

Buxoroda oftoba deyilsa, Samarqand, Toshkent hamda Farg'onada obdasta deb yuritiladi. Bir asr ilgari yasalgan oftobalar hozirgilaridan katta farq qilgan. Qadimgi oftobalar Afg'on oftobalariga o'xshash nafis, ko'rkam hamda silliq pardoqlanar edi. har bir vohada har xil oftobalar ishlatilar edi.

**Ko'za** — ariq yoki quduq suvlarini tashishda ishlatiladigan kattaroq idish. Ko'za ikki xil: qorni yumaloq bo'g'zi yuqoriga kichrayib ketuvchi hamda konussimon qorinli bo'ladi. Xivada suv idishlari tun deb atalib, u yumaloq shaklda bo'ladi, ba'zida qopqog'i va dastasi ham bo'ladi.

**Qumg'on** - Xorazmda suv uchun ishlatiladigan idish. Bu idish boshqa viloyatda qo'llanilmaydi. Originalligi shundaki ushlaydigan dastasi yo'q. Boshqa viloyatlarda oftoba deb yuritiladi. Keyingi vaqtlarda fabrika va zavodlarda har xil metall va chinni idishlarning ko'plab ishlab chiqarilishi misgarlik hunarmandchiligining rivojiga salbiy ta'sir qildi. Lekin shunga qaramay, ko'plab mis idishlar yasalyapti.



Qumg'on

**Oftoba** - Xivada oftobalar yassi, bo'g'zi uzun hamda ingichka bo'lib dastasi bo'lmaydi. Shahrizabz

kandakorlari oftobalarga rangli oynachalar, rangli so'rg'ichlardan, ayrim hollarda sirli bo'yoqlardan gullar solishgan. Buxoro oftobalari gul solingan, bo'yi pastroq, katta va ingichka bo'g'izli bo'lgan. Og'zi kichkinagina qabariq bo'lib, chetlari kungurali qopqoqcha bilan berkitilgan bo'ladi. Jiyakka oftobani qopqog'i o'rnatilgan bo'ladi. Qarshi oftobasi o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lib,

alohida yasalgan jo'mragi biroz yuqoriga egilgan holda tik o'rnatiladi. Oftoba jo'mragining biroz kengroq dastasi to'rt qirrali, yassi, jimjimasiz bo'ladi. Oftobaning qorni kengroq bo'lib, uning tag qismida chambarak qilinmaydi. Buxorolik ustalar Qarshi ustalari tayyorlagan oftobalar bo'g'ziga, jo'mragi atrofiga naqshlar, o'yma gullar, rangli oynalar, qorniga esa oq metallardan juda chiroyli qilib bezaklar ishlar edilar.



Oftoba

**Sarxum** — katta xumlardan suv olishda ishlatiladigan mis idishning hajmi katta bandi esa juda chiroyli bo'ladi. Sarxumni quyib yoki yasama usulda yasaladi va bezaladi. O'zbekiston kandakorligi idishlari Hindiston, sharqiy Turkiston, Eron, Kavkaz hamda Turkiya xalqlariga yaqin va o'xshashdir, chunki Markaziy Osiyo xalqlari qo'shni xalqlar bilan qo'shnichilik aloqalarida bo'lgan. Markaziy Osiyo hududida o'rdak ko'rinishidagi oftobalar ham qo'llanilgan.



Sarxum

**Choydisha** (choyjo'sh) - suv keltirish, suv saqlash va choy damlash uchun o'zbek xalqi orasida eng ko'p tarqalgan mis idishlardan biri. Choydisha suv tashiladi yoki choy qaynatiladi. Uning bo'yi 25—30 sm, qorni esa balandligiga yaqin kattalikda bo'ladi. Ular har xil ko'rinishga ega bo'lib tagida chambaragi bo'ladi. Uning dastasi quyilib idishning o'rtasiga ikki mix bilan parchinlab mahkamlanadi.

Choydisha qopqog'i ko'pincha «shabaka» ya'ni panjarali o'yma qilib ishlanib dastasiga o'rnatiladi. Dastalari yoy shaklida qayrilgan bo'lib, pastki uchi tumorcha «madoxil» shaklida tugaydi. Ba'zi hollarda ilon boshiga o'xshatib quyilib, ilonning og'zi ochiq yoki yopiq holda tasvirlanadi. Qadimgi misgarlarning aytishicha, ilon boshining tasviri idishni jinlardan saqlaydi. Ko'pincha idishlar dastasiga idishni ishlagan ustaning nomi, ayrim qollarda buyurtma berganning nomi badiiy qilib yozib qo'yilgan. Choydishaarning yumaloq, yapaloq qorinli «satranj» va ingichka bo'g'izli «isfaxon»lari bo'lgan.



Choydush

**Kashkil** - suv olib kelish uchun ishlatiladigan mis chelak. Uning pastki qismi tekis bo'ladi. XX asr boshlarida Evropada chelakka o'xshash kashkillar ham ishlab chiqilgan. Qo'l yuvish uchun oftoba, obdasta, qumg'on, dastsho'y, selobcha, chilopchin, tufdon (tuflagich) va boshqalar ishlatilgan..

Mis laganlar ko'pincha doirasimon ba'zi birlarigina ovalsimon yoki to'rtburchak bo'ladi. Bularni buxorolik hamda samarqandliklar chorkunj deb yuritadilar. Mis laganlarining lavxo'ri, dulava va qoshiqi turlari bor



Kashkil

**Dastsho'y** — qo'l yuvish uchun ishlatiladigan mis idish, u yumaloq



ko'rinishga ega bo'ladi. Dastsho'yning usti panjara qopqoqli bo'lib, qopqoq idishga burama holatda mahkamlangan. Suvni to'kish yoki tozalashda undan ajratib olish mumkin. Dastsho'y ajoyib naqshlar bilan bezatiladi. Ichimlik va ovqatlarni maxsus mis laganlarga qo'yib ustidan qopqoq bilan yopishgan. Mis lagan, mis tovoq, la'li barkash, oziqovqatlarni yopib qo'yish uchun savri, kashkil, satil va boshqalar ishlatilgan. Samarqand va buxoroliklar oddiy chelakni satil deb yuritadilar. Mis laganlar eng ko'p tarqalgan idishlardan bo'lib, ular yumaloq tuxum (la'li) shaklida va to'rtburchak (la'li chorkunj) shakllarda bo'ladi. Laganlar oyoqli ham bo'lishi mumkin. Buxoroda birinchi bo'lib mis laganlarga me'morlik yodgorliklariga xos qilib bezashni usta mulla Muqaddam Mukarramov boshlab bergan. Laganlarga realistik rasm solishni esa Abdusalom hamidov ishlagan. U quyosh, yulduz, yarim oy va boshqa naqsh elementlarini juda ko'p ishlatgan. Ayniqsa diniy marosimlarda, chilkalit, isiriqdon, darveshlarni idishi, kashkil ishlatilgan. O'sha vaqtlarda o'lka bo'ylab sonsanoqsiz darveshlar bo'lib, ular chelakka o'xshash kashkilni qo'lda ko'tarib sadaqa so'rab yurganlar. Katta kashkillar ham bo'lib, ulardan mozar va maqbaralarda tuproq tashilgan. Darveshlarning kashkili juda chiroyli naqshlar bilan bezatilib orasiga qur'ondan oyatlar yozilar edi



Dastsho'y

**Choynak**— ovalsimon yoki dumaloq mis idish. Choy damlab ichish uchun mo'ljallangan. Bu choynaklar o'simliksimon, geometrik va ramziy naqshlar bilan juda nafis qilib bezatilgan.



Choynak

**Dulava** — tuxumsimon yoki to'rtburchak shakldagi mis laganlarning yon tomonga qayrilib yana davom etib pastga qayrilgani. Bu laganlar ham juda chiroyli qilib ishlangan.

**Koshiqi** — qoshiqi, tuxumsimon yoki to'rtburchak mis laganlarning yon tomonga qayrilib yana davom etib astga qayrilgan, lablari kungurali bo'ladi.



Koshiqi


**Ov do'mbirasi** — dovul, pul saqlanadigan. Qalamdon, shamdon, mirqroz, bezaklar saqlanadigan quticha (sandiqcha), qalam solinadigan mischilim, qirg'ich, qoshiqchalar, manqal shu kabilar misdan yasalgan.

Xon va beklar ovga chiqqanlarida ov boshlanganidan darak berish va parranda, hayvonlarni cho'chitish hamda haydash uchun do'mbiralarni chalishgan. Bu do'mbiralalar dovullar deb yuritilgan. Ular ham ajoyib qilib bezatilardi. Sham paydo bo'lgandan so'ng shamdon, sham uchini tozalaydigan qaychi mikrozlarni ham kandakorlar ajoyib qilib bezaganlar.



Ov do'mbirasi

**O'smajo'shak** — o'sma ezish va qosh bo'yash uchun hamda turli bo'yoqlar tayyorlashda ishlatiladigan mis idishcha. Bu idishchani uchta oyog'i hamda dastasi bo'ladi. O'smajo'shakni kandakor islmiy naqshlar bilan bezagan. O'smajo'shak uzum bargi shaklida ham bo'ladi.



O'smajo'shak

**Surmadon** — og'zi kichkina, ustki qismida esa burma teshikchasi bo'lib, bu teshikcha temir naycha o'tkazilgan po'kak bilan mahkamlangan bo'ladi. Shu naycha bilan Markaziy Osiyo, Sharq xotin-qizlari qosh hamda kipriklarini bo'yar edilar. Bu surmadonlar naqshlar bilan bezatilgan bo'ladi. Ayrim hollarda

baliq shaklidagi surmadonlar ham bo'lgan.



Surmadon

**Manqaldon** — pechka o'rnida ishlatiladigan idish. U oyoqchalardan, devorchalardan iborat bo'lib, yig'ilganda qirrali katta to'garak tashkil qiladi. Rixtagarlar manqaldonlarni har xil formada yasaydilar. Manqaldonlar yumaloq, to'rt qirrali, olti qirrali, o'n ikki qirrali ham bo'ladi. Yasalgan manqaldonning qancha qirrasi ko'p bo'lsa, shuncha u og'ir bo'ladi. Uni ko'tarib yurish uchun ikki tomonida qulog'i bo'ladi. Ba'zida choynak qo'yish uchun chuqurcha ham o'yib qo'yiladi. Manqaldonni ayrim hollarda sandal ostiga qo'yib isitib o'tirishgan. Qishda uning ichiga archa ko'mir yoqib, xonadonlarda, rastalarda hunarmandlar foydalanadigan pechka o'rnida ishlatiladigan idishdir.



Manqaldon

## **2.4. Mis kandakorligida inkrustatsiya usulidan foydalanib buyumni badiiy ishlov berish texnologiyasi**

Kandakorlik buyumlari mis, latun, melxior xom-ashyosidan tayyorlanadi. Buyumlarni tayyorlash badiiy ishlov berish asosan ularga naqsh namunalarini tushirish, pardozlash kishidan anchagina malaka va noziklikni talab etadi. Misdan yasalgan sovg'abop buyumlarini naqshlashda xalq ustalarimizning yutuqlari ulkandir. Ularning ijod namunalari turli muzey, ko'rgazma zallari, badiiy salonlardan keng o'rin olgan. Shu bilan birga, bu san'at namunalarini nafaqat respublika miqyosidagi ko'rgazmalarda, balki, nufuzli chet el ko'rgazmalarida ham yuqori o'rinlarni olib qaytgan. Xalq amaliy san'atining, asosan kandakorlik san'atining nufuzini oshirishda ustalarimizdan, T.Qosimov, R.Avezov, R.Fatullaev, J.Qosimov, S.Muxsinov, Sh.G'ulomov, I.Muxsinov, Q.Saidov, B.Halimov, D. Xalimovalarning xizmatlari katta.

Kandakorlik ustaxonalariga borib ustalarning ijodiy ishlari bilan tanishdim. Ularning ijodiy ishlarida orasida lalilar, oftobalar, ko'zalar, ignaqadagich, surmadon va bilakuzuk kabi sovg'abop buyumlarni kuzatdik. Biz ularning ijodlaridan foto suratlar olib, o'zlaridan qimmatli ma'lumotlarni olishga muvaffaq bo'ldim. Shu to'plagan ma'lumot va ustalar ishidan olgan namunalarimiz hamda bilimimiz asosida kompozitsiya eskizlarini tuzishga kirishdim. Eskizlarni umumlashtirib ular asosida kompozitsiya va uning xomaki eskizlari bir necha marta turli variantlarda tuzildi. Eskizlar jamlanib, xomaki chizmalar umumlashtirilib kamchiliklari tuzatildi va natijada buyumlarga mos yangi kompozitsiya tayyor kompozitsiyalar yaratildi.

Quyidagi tartibda ishni boshladim. Tayyorlanadigan har bir buyum uchun shaffof qog'ozda (kalkada) naqsh kompozitsiyasi chiziladi.

Yasaladigan buyumlar uchun kerakli xom – ashyo va asbob uskunalarni tayyorlandi. Mis lagan dastgohga (kanifolli qolib) yopishtiriladi.

Mis lalilarga mos naqsh kompozitsiya tuzildi. Naqsh kompozitsiyalar bir necha variantlar asosida eskizlar bajarildi.

Naqsh kompozistiyani quyidagi ketma-ketlikda tuzildi.

- Naqsh kompozistiya simmetrik bo'lganligi uchun naqsh chiziladigan yuza taqsimlandi.

- Naqsh kompozistiyaning ramziy shakllari ya'ni tanoblarini chizildi.

- Novda yo'nalishlari (naqsh dinamikasi) chizildi.

- Gullar chizildi.

- Qo'shimcha naqsh elementlaridan (marg'ula, mug'ja, bodom, barg) chizildi.

- Ishimning mavzusi qadimiy yodgorliklar bo'lganligi uchun, kompoziciya markazida Ark, Chor minor, Minorai Kalon tasvirlandi.

Bajarilgan eskizlarning umumlashtirilib, yakuniy tayyor kompozistiya holatiga keltirildi. Kompozistiya tuzishda uning simmetriya, taqsim, ritm, mutanosiblik kabi qonun-qoidalariga rioya qilindi. Tuzilgan naqsh kompozistiya qog'ozdan shaffof qog'ozga (kalka) ko'chirildi. Kalkadagi tayyor kompozisiya kopirovka orqali buyumga qalam yordamida tushiriladi.

Naqsh kompozistiya kontur chiziqlari o'yib bezatildi. Naqsh kompozistiyaning zamini o'yima pardozi. Eskiz asosida buyumlarni yasaldi. Buyumni jilvir qog'oz va qum va lattada tozaladi. Buyumni namatli charx stanokda pardozi ishlov berildi.

Tayyor buyumlarni rangsiz lok bo'yog'ida loklandi. Lagan yasash uchun uning shakli tuzilishi va o'lchamlarini bir necha xil variantlarda eskizlar chizildi hamda ulardan eng yaxshi eskizlar tanlanib olindi.

Dasgohdagi mis buyumdagi o'yima va pardozi ishlari to'liq tugatilgandan keyin buyumni dasgohdan olib tozalash va pardozi ishlov berish lozim bo'ladi. Buning uchun mis buyumni dasgohga o'rnatish jarayonidagi kabi uning ustki qismiga olov saqlab, ma'lum vaqt va haroratdan keyin dasgohdagi qandal eriydi.

Uni ehtiyotkorlik bilan maxsus qisqich yordamida olindi.

Buyumni eng yakunlovchi bosqichida mayin donali "000" markali chilvir qog'oz bilan ishqalab tozaladi. Shundan so'ng namatli charx stanokda pardozi ishlov berildi. Buyumga pardozi ishlov berish jarayonida

pastagoidan foydalanildi. Mis buyum uzoq muddat toza, chiroyli va yaltirab turishi uchun uni rangsiz lokda loklandi.

## **2.5. The short history of Uzbekistan embossed copper art**

Copper embossing is one of the most ancient applied arts of Uzbekistan. Over centuries the embossed copper art in Uzbekistan has been the traditional art for many regions of Central Asia and today you can find a great number of articles, decorated with various patterns and motifs of embossing. The main workshops of embossed copper articles were located in Bukhara, Khiva, Kokand, Samarkand, Karshi, Shakhrisabz and Tashkent.

Embossed articles of the 18-19th centuries were distinguished for harmonious proportions, plastic and expressive lines and ornamental patterns. Embossed and chased metal articles of that time were valued not only for their decorative qualities. They also played an important role in everyday life as the indicators of social status and wealth.

Local schools of artistic embossing were established in Uzbekistan in the 19th century. Schools differed with own style of ornamentation, form and design as well as with an approach to emboss. In the 19th century Bukhara and Khiva masters of embossed copper art became very popular. They distinguished with the great plasticity of shapes, classic balance of proportions, ornamental motifs and the original technique of engraving and embossing.

Bukhara embossing was remarkable for its simple and restrained shapes. Typical herbal ornament of Bukhara embossing was much bigger but at the same time more graceful than patterns of other schools. From the nineteenth to early twentieth centuries Bukhara chasers used to decorate some parts of their work as body, neck, jug handles or wide trays with calligraphic inscriptions, sometimes using vegetable motifs.

Khiva craftsmen applied the technique of deep embossing, and sometimes shallow embossing which is rather close to engraved carving. The peculiarity of



Khiva technique was a smooth background without decoration. Background coloring was not used at that, but sometimes black and red lacquers were applied.

Embossed copper articles of Karshi and Shakhrisabz craftsmen are very close to each other stylistically. At the same time simple form and decoration of Karshi and Shakhrisabz school differed from the embossing of other Uzbekistan schools of embossed copper art. Karshi and Shakhrisabz schools differed also with design features. The elegant bases of vessel handles, spout and the top part of the body were decorated by large applied rosettes and locketts made by the stamping technique and encrusted with turquoise and glass.

In Kokand the copper embossed work was more varied in form but less perfect in proportion than traditional articles of Bukhara and Khiva masters. In the nineteenth century Kokand chasers used all methods of background and surface pattern decorations: punching, hatching, various nets and figured hollows.

Samarkand school of the last century remained conservative and did not come to the influence of new technical means and methods. Big and plain vegetable pattern of Samarkand craftsmen was quite different from the graceful and conventional patterns of Bukhara, Khiva and Kokand. Samarkand craftsmen usually used in their ornamental compositions the clover, the four-petal flower that characterized many other types of ancient Samarkand ornament.

## Xulosa

Mis kandakorlik san`atini puxta o`rganishimga sababchi mening otam bo`ladilar. Mening otam rahmatli ustozoda Salimjon Xamidovning jiyanlari va shogirdlaridan biridir. Endigina o`n yoshga kirganimda otam meni ko`hna shaxrimizdagi Nodir devon Begi madrasasida joylashgan kandakorlar ustaxonasiga olib bordilar. Uyimizda juda ko`p kandakorlikda bajarilgan buyumlar bor edi, ammo bu ajoyib san`at asarlari qay usulda ishlanishi haqida habarim yo`q edi. Otamning ish joylarini ko`rib, boshqa kandakorlarning ishini kuzatib, ichimda havas paydo qildim. Otam buni payqab menga yangi daftar va qalam qo`linga tutqazdilar-u, o`zlarining shogirdlari Toxir Qosimovga shogirdlikka topshirdilar. Ustozim kandakorlik naqshlarini chizishni o`rgata boshladilar.

Yahshi kandakor bo`lish uchun, shogird avvalam bor sabrli bo`lishi kerak. Yarim yil davomida kandakorlik naqshlarini faqat daftarda chizdim. Bu deganiki, kandakorlik san`ati naqqoshlik mahoratini talab qiladi. Naqshlar ravon, tekkis chiqqanidan keyingina ustozim mis parchasini dastgohga o`rnatib, qo`linga po`lat qalam bilan bo`lg`achani tutqazdilar. Shu hunarim orqali men ko`p joylarda bo`ldim, Respublikamizda bo`ladigan ko`rgazmalarda doimiy ravishda qatnashib kelyapman, Qozog`iston, Rossiya, Frantsiya, Germaniya, Amerikada bo`lib o`tgan ko`rgazmalarda o`z ijodiy ishlarimni namoyish qilib keldim. Fakultetimizning iqtidorli talabalaridan biri bo`lib, Uiversitetning hamma tadbirlarida ijodiy ishlarim namoyish qilinadi. Mis kandakorlik haqida to`rta ilmiy maqolam nashr qilingan, shulardan biri chet elda bosilib chiqdi.

Yana shuni xulosa qilmoqchiman, o`zbek xalqi hunarmand xalq. Qo`li gul usta-xunarmandlar davlatimizni butun dunyoga tanitishga o`z hissalarini qo`shganlar. Bunga esa yo`lni mustaqil davlatimizning prezidenti I.A.Karimov keng ochib berdilar. Davlatimiz sardori doimo yoshlarga murojaat qilganlarida, ularni ilmi bo`lishga va hunar egallashga chorlaydilar.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. - T.: O'zbekiston, 1993. - 363 b.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: O'zbekiston, 1998. - 64 b.
3. Bulatov S.S., Shabaratov P.P., Rasulov M.A. Naqqoshlik. T.: "Iqtisod - Moliya". 2010. B.28.
4. Abdullaev T. XIX –XX asrlarda o'zbek kandakorlik san'ati .T.1973.
5. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. T.: 1991.
6. Abdullaev T., Faxretdinova D., Hakimov A. Ma'danga bitilgan qo'shiq .T.1986
7. Bulatov S.S., Tolipov N. Go'zallik falsafasi. T.: Fan va texnologiya nashriyoti. 2008.
8. Bulatov S.S , Qosimov J.T., Muxsinov S.I., Habibova M.M. O'zbek milliy kandakorlik san'ati . T 2003
9. Halimova D .A .Buxoro kandakorligi . Buxoro 1996
10. Bulatov S.S, Qosimov J.T., Avliyoqulov M.M. Kandakorlik san'atiga oid lug'at terminlari . T. 2003
11. Halimova D, Muxsinov S. Mis kandakorligi (o'quv qo'llanma) Buxoro 1994 y.
12. O'zbekiston san'ati. - T.: Sharq, 2001. 69-72 b.
13. Ahmedov M.B. Yog'och o'ymakorligi. T., 2006. B.84.
14. Bulatov S.S ., Muxtorov A. Ganchkorlik san`ati. T.: 2006. B. 49.
15. Apuxtin O.K. Badiiy naqsh maktabi. T., «O'qituvchi», 1969.
16. Azimov I. «O'zbekiston naqshu nigoralari.— T., G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987
17. Bulatov M. S. Geometricheskaya garmonizatsiya v arxitekture Sredney Azii IX—XV vv.— M., «Nauka», Glavnaya redaktsiya vostochnoy literaturi, 1978.

18. Muhsinova A, Avliyoqulova Sh, Qosimov J. “Kandakorlik buyumlarini bezashda foydalaniladigan bezak va tasvir turlari”. (Ilmiy maqola, tezislar to’plami.) Buxoro. 2008 y. 263-264 b.
19. Mirzaahmedov M. A. Boshlang’ich badiiy naqsh ishlash metodikasi, Toshkent, «O’qituvchi», 1976.
20. Mirzaahmedov M. Materiallarga badiiy ishlov berish. T., «O’qituvchi», 1986.
21. Hasanov R. Boshlang’ich sinflarda naqsh chizish metodikasi.— Toshkent. O’qituvchi, 1972.
22. Qosimov Q. Naqqoshlik.— Toshkent: «O’qituvchi» nashriyoti, 1982.
23. Muxsinov S, Qosimov J. Xalq amaliy bezak san’atida Buxoro kandakorligi san’atining o’rni va ahamiyati. Tasviriy va amaliy san’at o’qituvchilarini tayyorlash samaradorligini oshirish masalalari. T, (Ilmiy maqola, tezislar to’plami.) 2008. B 172-173.
24. Muxsinov S., Qosimov J., Muxsinova A. Kandakorlikda ishlatiladigan po’lat qalamlar va ularda bajariladigan o’yma turlari. Oliy ta’lim tizimida musiqa, tasviriy va amaliy san’at fanlarining dolzarb muammolari. Buxoro. (Ilmiy maqola, tezislar to’plami.) 2010. B 38-40.

**Internet saytlari.**

[www.ZiyoNet.uz](http://www.ZiyoNet.uz)

[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

[www.Ziyouz.som](http://www.Ziyouz.som)

[www.namangan.uz](http://www.namangan.uz)

## ILOVALAR



Noma`lum usta. Dastsho`y.


Mis, kandakori. XIX asr.



Г'афуров Зокир. Тоджик.  
Латуи, чеканка. 2003.  
Gafurov Zakir. Tray. Brass,  
chasing. 2003.

G`afurov Zokir.Patnis.

Jez, kandakori. 2003.



ронза,  
панжа-

бидаста),  
еканка,  
езьба.

dasta).  
sing,  
arving.

G`afurov Zokir.Obdasta.

Jez, bronza, kandakori, quyma, panjara naqsh. 2003.



Qosimov Tohir. Patnis.

Jez. Kandakori, naqqoshlik, inkrustatsiya.2016.






G`ulomov Shavkat. Patnis.  
Jez. Kandakori, naqqoshlik, inkrustatsiya.2016.


## Bitiruv malakaviy ishning amaliy qismi suratlari








Patnisning zaminini naqqoshlikda bezatilgan qismi.



Patnisni inkrustatsiya va sun`iy toshlar bilan bezatilgan qismi.



Amaliy ishning tayyor xolati.



Amaliy ush Eskizlari